

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

SUG‘URTA FAKULTETI

“SUG‘URTA ISHI” KAFEDRASI

**ERKINOV MIRZOBEK MUZAFFAR OGLI
UY JOY SUG‘URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI**

5231201 – “Sug‘urta ishi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”
Fakultet dekani**

_____ i.f.n., G'.Safarov
“ ____ ” _____ 2018 y.

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”
“Sug‘urta ishi” kafedrası mudiri**

_____ i.f.n., I.Abduraxmonov
“ ____ ” _____ 2018 y.

Bitiruvchi: 5231201 – “Sug‘urta ishi” bakalavriat
ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi
_____ Erkinov Mirzobek Muzaffar ogli

Ilmiy rahbar: _____ I.Kenjaev

TOSHKENT – 2018

MUNDARIJA		betlar
KIRISH		3
1-BOB. UY - JOY SUG‘URTASINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI		6
1.1	Uy-joy sug‘urtasini amalga oshirishning nazariy asoslari.....	6
1.2	Uy-joy sug‘urtasini amalga oshirishning huquqiy asoslari.....	15
1.3	Uy-joy sug‘urtasida sug‘urta tovonini to‘lash tartibi.....	26
	1-bob bo‘yicha xulosa.....	32
2-BOB. SUG‘URTA BOZORINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAHLILI.....		33
2.1	Sug‘urta bozorini rivojlanish tendensiyalari va uni tahlili.....	33
2.2	Uy-joy sug‘urtasining hozirgi holati va uni tahlili	40
	2-bob bo‘yicha xulosa.....	52
3-BOB. O‘ZBEKISTONDA UY-JOY SUG‘URTASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....		53
3.1	Uy-joyni sug‘urtalashning xorij tajribasi va undan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlari.....	53
3.2	Uy-joy sug‘urtasi va uni rivojlantirish istiqbollari.....	59
	3-bob bo‘yicha xulosa.....	63
XULOSA VA TAKLIFLAR.....		64
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....		68

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini 2017 yil 7 fevralda, 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi 4947– sonli Farmoni bilan tasdiqlanganligi juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur harakatlar strategiyasini to‘rtinchi tamoyili “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlanib, uning 4.3-bandi arzon uy-joylar barpo etish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta‘minlovchi yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilishga katta e‘tibor qaratilgan¹. Mazkur yo‘nalishlarga qaratilgan katta e‘tibor bevosita sug‘urta sohasini rivojlanishiga hamda uy-joy sug‘urtasini sug‘urtalashga bo‘lgan zaruratni keltirib chiqarishga asos bo‘ladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

SHuningdek sug‘urta tizimini yanada isloh qilish va rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlarining amaliyotga tatbiq etilishi natijasida ushbu tizim so‘ngi yillarda barqaror rivojlanish sur‘atlarini namoyon etmoqda. Jumladan, 2017 yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urtalovchilar tomonidan yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari hajmi 927451,4 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Bu o‘tgan yilning tegishli ko‘rsatkichidan 134 foizga ko‘pdir².Milliy bozorimizning shunday sur‘atlar bilan rivojlanishiga qaramay, mulkiy sug‘urtaning muhim segmentlaridan biri – jismoniy shaxslar mulkini sug‘urtalashning bugungi holatini qoniqarli deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, sug‘urtaning aholi keng qatlamlari orasiga kirib bormaganligi, sug‘urta savodxonligining hali-hanuz past darajada saqlanib qolayotganligi, aksariyat sug‘urta tashkilotlarining sug‘urta mukofotlari tushumini “tez va oson, ko‘p mehnat talab etmaydigan yo‘llar” orqali ko‘paytirishga qaratilgan harakatlari tufayli, ko‘plab savdo shaxobchalari yoxud ma‘lum miqdorda agentlar sonini oshirishni taqozo etadigan jismoniy shaxslar bilan ishlash tizimiga qiziqishining kamligi jismoniy shaxslar mulkini sug‘urtalash sohasini keng miqyosda va

¹“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 –fevraldagi PF – 4947 – sonli Farmoni

²“O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

ko‘lamda taraqqiy etishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday muammoli holatlarning mavjudligi va ularni hal etish yo‘llarini izlashning zarurligi, ushbu bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarb ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

Tadqiqot predmeti. Uy-joylarni sug‘urtalashda sug‘urtalovchi va mijoz o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar, sug‘urtalash qoidalari va tartiblari tashkil etadi.

Tadqiqot ob’ekti. Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti bo‘lib, “Kafolat” AJ va “Asia Inshurans” MChJ SK sug‘urta kompaniyalarining uy-joylarni sug‘urtalash bo‘yicha olib borayotgan faoliyati hisoblanadi.

Maqsad va vazifalari. Uy-joylarni sug‘urtalashning nazariy va uslubiy asoslari hamda amaliy jihatlarini o‘rganish natijasida ushbu sug‘urta turini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ishi oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun ushbu ishda quyidagi vazifalarni hal etish nazarda tutilgan:

- Uy-joy sug‘urtasini amalga oshirishning nazariy asoslarini ochib berish;
- uy-joy sug‘urtasini amalga oshirishning huquqiy asoslarini tavsiflash;
- uy-joy sug‘urtasida sug‘urta tovonini to‘lash tartibini tavsiflash;
- sug‘urta bozorini rivojlanish tendensiyalari va uni tahlil qilish;
- uy-joy sug‘urtasining hozirgi holatini tahlil qilish;
- uy-joy sug‘urtasini rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Prezident asarlari tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini tashkil qiladi.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining va sug‘urta bozorining statistik ma’lumotlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi. Ishning kirish qismida bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi va ahamiyatga molik jihatlarini asoslangan hamda mazkur ish oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar yoritilgan.

Ishning birinchi bobi, “Uy-joy sug‘urtasini amalga oshirishning nazariy va huquqiy asoslari” deb nomlangan bo‘lib, unda uy-joy sug‘urtasini amalga oshirishning nazariy asoslari va uy-joy sug‘urtasini amalga oshirishning huquqiy asoslarida uy-joy sug‘urtasida sug‘urta tovonini to‘lash tartibiga‘risidagi fikrlar o‘z ifodasini topgan. Ishning ikkinchi bobi, “Sug‘urta bozorini rivojlanish tendensiyalarini hozirgi holati va uni tahlili” deb nomlanib, unda sug‘urta bozorini rivojlanish tendensiyalarini tahlili va uy-joy sug‘urtasining hozirgi holatini tahlil keltirilgan. Ishning uchinchi bobi esa “O‘zbekistonda uy-joy sug‘urtasi va uni rivojlantirish istiqbollari” deb nomlanib, unda uy-joy sug‘urtalashning xorij tajribasi va undan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlarida uy-joy sug‘urtasi va uni rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Ishning xulosa qismida mavzuni ilmiy tadqiq etish natijasida shakllantirilgan xulosalar va takliflar o‘z aksini topgan.

Ishning umumiy hajmi 71 betdan iborat.

1-BOB. UY-JOY SUG‘URTASINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

1.1 Uy-joy sug‘urtasini amalga oshirishning nazariy asoslari

Bozor iqtisodiyot itizimi rivojlanib borar ekan jamiyat faoliyatining barcha sohalari ko'rsatkichlariga, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarda iqtisodiyotning muhim elementlardan biri sug'urtaga ehtiyoj oshib boradi. Sug'urta fuqarolar, tashkilotlar va davlatning mulkiy manfaatlarini har xil tabiiy, texnik hamda turli xildagi tavakkalchiliklardan himoya qilishini byudjetdan mablag' talab qilmay ta'minlaydigan mexanizmdir.

Qadimzamonlardan fuqarolar o'rtasida ko'rilgan zararni qoplash maqsadida mulk egalari g'ati shlimol-mulklarni birlashtirish va zararni birlashma a'zolari o'rtasida bo'lish fikri tug'ilgan. Ushbu birlashma qatnashchilari qanchalik ko'p bo'lsa, zarar ko'rgan tomonga to'lanishi kerak bo'lgan qoplama uchun ajratiladigan mablag' ulushi shuncha kam bo'lgan.

Tarixdan ma'lumki, agarda har bir mulk egasi ehtimoli mavjud bo'lgan zararni qoplash maqsadida zahirada uning aylanma mablag'lariga teng miqdorda moddiy boyliklarni ushlab turishga majbur bo'lganlar. Shu sababli xayri hohs haxslarni zararni birgalikda qoplash maqsadida birlashmaga birlashtirish g'oyasi yuzaga kelgan.

Shuningdek uy-joy sug'urtasi har qanday turdagi mulkdorlarning (fuqarolar, korxonalar, davlat) mulkning yo'qotilishi yoki unga ziyon etkazilishi xatarlariga doir manfaatlarini himoyasini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining Fuqorolik Kodeksiga muvofiq mulkiy sug'urtaga boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha javobgarlik, shuningdek tadbirkorlik faoliyatidan kutilgan daromadlarni ololmaslik xavfi kiradi. Bunda mol-mulk – mulkdor yoki uning ishonchli vakili egalik qilayotgan, foydalanayotgan, tasarruf etayotgan moddiy ob'ektlar yoki ashyolardir. Shaxsning yoki tashkilotning mol-mulki o'zichiga erni, binolarni, jihozlarni, bank hisob varaqlarini, kiyim-kechaklarni, sanoat aksiyalarini, muzlatgich ichidagi narsalarni, yozilgan asarga nisbatan mualliflik huquqlarini, avtomobillarni, extiropatentlarini va boshqa minglab boshqa narsalarni olishi mumkin. Mulkdor o'z egaligidagi anashu mol-mulklar olishi mumkin bo'lgan daromadni yo'qotish xavfi sug'urta qilinishi mumkin.

Ya'niy Fuqorolik Kodeksning 128-moddasida sanab o'tilgan mulkiy huquqlar va fuqarolik huquqlarining boshqa ob'ektlari ham sug'urta himoyasi bilan ta'minlanishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda uy-joyning asralishidan qonun hujjatlariga yoki shartnomaga asoslangan manfaatga ega bo'lgan shaxs (sug'urta qildiruvchi yoki nafoluvchi) foydasiga sug'urtalanishi mumkin. Sug'urtalangan uy-joyning asralishidan manfaatdorlik bo'lmagan holda tuzilgan mol-mulkni sug'urta qilish shartnomasi haqiqiy emas.

Uy-joy sug'urtasida sug'urta shartnomalarini tuzish va ijro etish jarayoni bo'lib, unga muvofiq sug'urtalovchi shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazardatutilgan sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urta qildiruvchiga yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga sug'urtalangan mulkka etkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni to'lash majburiyatini oladi.

O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risidagi qonun"i asosida tartibga solinadi. Fuqarolarga tegishli mol-mulk asosan hayot uchun zarur uy-ro'zg'or, shaxsiy va boshqa istemol buyumlaridan iborat oila mulki tarkibida shakllanadi. Tarkibiy jihatdan uni 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Har bir oilaga tegishli umumiy mulk (uy-joy, imorat, uy-ro'zg'or, yordamchi xo'jalik buyumlari). Bu mulk barcha oila a'zolariga xizmat qiladi.
2. Har bir oila a'zosining faqat o'ziga tegishli shaxsiy mulki.
3. Uy sharoitida yakka mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchilarga tegishli ishlab chiqarish vositalari va qurollari.

Shu bilan bir qatorda yuqorida aytib o'tilgandan tashqari, oila a'zolarining banklarda saqlanayotgan omonat mablag'lari, aksiyalari va boshqalar ham oila mulki hisoblanib, ko'rsatilgan guruhlardan biriga kiradi.

Sub'ektlarga tegishli mulklarni sug'urta hodisalaridan saqlashda ularni sug'urtalash muxim ahamiyatga egadir. Ko'rsatilgan mulk shakllarini mulk egalari orqali sug'urtalash mulkiy sug'urta deb ataladi. O'zbekiston Respublikasi

Fuqarolik Kodeksining 915 – moddasida mulkiy sugurta shartnomasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

“Mulkiy sugurta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug’urtalovchi) shartnomada shartlashilgan xaq (sug’urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sugurta xodisasi) sodir bo’lganda boshqa tarafga (sug’urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo’lsa, o’sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug’urtalangan mulkka etkazilgan zararni yohud sug’urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog’lik zararni shartnomada belgilangan summa(sug’urta puli) doirasida to’lash (sug’urta to’loni to’lash) majburiyatini oladi.

Mulkiy sug’urta shartnomasi bo’yicha quyidagilar sug’urtalanishi mumkin:

Muayyan mol-mulkning yuqotilishi(nobud bulishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi havfi.” Mulk xuquqiy va jismoniy shaxslar egalik qiladigan moddiy ne’matlar, boyliklardir.

Mol-mulk uning asralishidan qonun xujjatlariga yoki shartnomaga asoslangan manfaatga ega bulgan shaxs (sug’urta qildiruvchi yoki naf oluvchi) foydasiga, uning mulkdori, mol-mulkka nisbatan boshqa ashyoviy xuquqqa ega bo’lgan shaxs, ijarachi, pudratchi, saqllovchi, vositachi va boshqa shu kabilar foydasiga sug’urta shartnomasi bo’yicha sug’urtalanishi mumkin.

Sug’urtalangan mol-mulkning asralishidan sug’urta qildiruvchida va naf oluvchida manfaat bo’lmagan paytda tuzilgan mol-mulkni sug’urta qilish shartnomasi xaqiqiy emas.

Naf oluvchi foydasiga mol- mulkni sug’urta qilish shartnomasi naf oluvchining ismi yoki nomi ko’rsatilmasdan tuzilishi mumkin. Bunday shartnoma tuzilganda sug’urta qildiruvchiga egasining nomi ko’rsatilmagan polis beriladi. Bunday shartnoma bo’yicha xuquqlarni amalga oshirishda bu polisni sug’urtalovchiga taqdim etish zarur.

Mulkni sug’urtasining ob’ekti bo’lib O’zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo’lmagan mulkka egalik qilish, ishlatish va boshqarish yuzasidan vujudga kelgan majburiyatlarning mulkiy manfaatlari hisoblanadi. Bu

erda sugʻurtalanuvchilar muomalaga layoqatli boʻlgan jismoniy shaxslar boʻlib, sugʻurta shartnomasidagi oʻzining yoki uchinchi tomonning manfaatlarini sugʻurtalovchi tomon. Sugʻurta shartnomasiga binoan sugʻurtalanuvchi sugʻurtalovchiga sugʻurta hodisasi yuz berganda zararni qoplab berish majburiyatini olganligi uchun sugʻurta mukofotini toʻlab berishi kerak.

Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq jismoniy shaxslarning mulki zararlanishdan, olov va tabiiy ofatlardan sugʻurtalanadi.

Jismoniy shaxslarning mulklari quyidagicha tarkib topadi:

❖ fuqarolarning xususiy mulki boʻlgan yashash uylari, kvartira, dala-hovli, garaj, omborxonalar hamda boshqa shaxsiy va shartnoma boʻyicha ijaraga olgan qurilishlar:

❖ tarkibiy qismlari(orayopmalar, devor va pardevorlar)ning majmui, tashqi va ichki pardoatlanishi yordamchi imoratlar nazarda tutilgan yashash uylari, yashash uylarining injenerlik uskunalari;

❖ uy mulki, yaʼni uy anjomlari (uy jixozlari, roʻzgʻor buyumlari, sugʻurtalanuvchi va sugʻurtalanuvchining oilasiga tegishli yordamchi xoʻjaligining buyumlari);

❖ transport vositalari;

❖ Qishloq xoʻjalik ekinlari va koʻp yillik daraxt va butalar;

❖ Qishloq xoʻjalik hayvonlari;

Jismoniy shaxslarning quyidagi mulklari sugʻurtalovchilar tomonidan ommaviy sugʻurtaga olinmaydi:

Jismoniy shaxslar mulki quyidagi risklardan sugʻurtalanishi mumkin:

- Ichki santexnik tizimlarning ishdan chiqishi - sugʻurtalangan mulkni suv krani, kanalizatsiya, isitish va yongʻinga qarshi tizimlardan chiqqan suv taʼsirida zararlanishi yoki yoʻq boʻlib ketishi koʻzda tutiladi.

Sugʻurtalash quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

-Suv, kanalizatsiya, isitish tizimlarining quvurlari muzlaganda yoki yorilishi natijasida mulkka etkazilgan zarar (yordamchi ishlar va eritish ishlari uchun xarajatlar ham inobatga olinadi).

- Qo'shni xonalardan suvning sizib kirishi.
- Yong'in - ochiq olov shaklidagi yong'in nazarda tutiladi.
- Portlash - gaz va parlarning kengayishiga asoslangan bosimning emiruvchi kuchi ko'rinishi.
- Zilzila - er silkinishlari bilan kuzatiladigan er ostida sodir bo'ladigan tabiat hodisalarining natijasi.
- Suv toshishi - daryo va ko'llardagi suv satxining ko'tarilishi natijasida ma'lum bir xududni suv bosib ketishi.
- Bo'ron (dovul) - tezligi 15m/s dan yuqori bo'lgan kuchli shamol. Tezligi 15,3 dan 29m/s ni tashkil qiladigan shamol - bo'ron, tezligi 29 m/s dan ortiq bo'lgan shamol dovul.

Sug'urtalovchi dovul natijasida sug'urtalangan mulkning zararlanganligi uchun sug'urta qoplamasini to'laydi, agar zararlanish quyidagilar natijasida bo'lsa:

SHamolning bevosita ta'siri;

- bo'ron ta'sirida sug'urtalangan mulk ustiga binoning ayrim qismlari, daraxtlar yoki boshqa jismlarning tushib ketishi.

Sug'urtalangan ob'ektga bo'ron natijasida etkazilgan zarar.

- Do'l - do'lning bevosita ta'siri natijasida sug'urtalangan mulkning yo'q bo'lishi yoki zararlanishi.
- O'g'irlik - yashash uyi yoki binoga qonunga zid holda kirib sug'urtalangan mulkni yashirincha o'g'irlash.
- Talonchilik - qo'lga olish yoki zulm o'tkazgan holda sug'urtalangan mulkni ochiq o'g'irlash.
- Uchinchi shaxslarning qonunga zid bo'lgan harakatlari.
- Erning cho'kish, o'pirilishi - o'zining og'irlik kuchi ta'sirida tog' jinslarining joyidan siljishi. Er cho'kishlari va o'pirilishlari ko'l, daryo, soy qirg'oqlari, jar yoqalari, chuqurliklar, kanallarning keskin qiyaliklarida vujudga keladi.

- Sel oz vaqt ichida ko'p miqdorda yog'ingarchiliklar bo'lishi, qorlarning tez erishi natijasida ko'l va daryolardagi suvning keskin ko'tarilishi oqibatida yuzaga keluvchi kuchli oqim.

- Chaqmoq urishi.

- Jala.

- Er osti suvlarining chiqishi.

- Uchar apparatlarning tushishi.

- Mazkur hudud uchun noan'anaviy bo'lgan uzoq vaqt davom etgan yomg'irlar va/yoki qorning ko'p miqdorda yog'ishi.

Quyidagilar natijasida sodir bo'lgan voqealar sug'urta hodisalariga kirmaydi:

- sug'urta shartnomasida boshqa shartlar keltirilmagan bo'lsa sug'urta ob'ektiga kirmagan mulkning tashqi elektro'tkazgichlar, jumladan ustunlar, machtalar va turli hil to'sinlarning zararlanishi;

- Sug'urtalanuvchi yoki manfaatdorning sug'urta hodisasi bo'lishga olib keladigan qasddan sodir etgan harakatlari;

- Sug'urtalanuvchi va/yoki uning oila a'zolarining toksik zaharlanish, narkotik yoki alkogol ta'sirida bo'lgandagi harakatlari(xarakatsizliklari);

- mulkning o'zidan-o'zi yonib ketishi, chirishi yoki boshqa tabiiy xususiyatlari;

- mulkning o'g'irlanishi, uchinchi shaxslarning qasddan sodir etgan qonunga zid bo'lgan xarakatlari natijasida mulkning zararlanishi, agar bu haqda tegishli idoralarga murojaat etilmagan yoki tegishli organlar tomonidan bu fakt tasdiqlanmagan bo'lsa;

- qirchumoli(termit), kuya, parazitlar va boshqa hashoratlar, yashirin defektlar, tabiiy eskirish, zamburug'lar, mog'or, atmosfera namligi va hokazolar ta'sirida mulkning zararlanishi;

- oyna yoki boshqa tez sinuvchi, mo'rt jismlarning urilishi natijasida mulkning zararlanishi, rangini o'zgarishi;

- Deraza yoki eshiklarning ochiq qolishi natijasida uy anjomlariga zarar etishi;

➤ Urush yoki urush xarakatlari, revolyusiya, qo'zg'olon, g'alayon, ish tashlash, hukumatni qonunga zid ravishda qo'lga kiritish, suiqasd, fitna, terroristik xarakatlar natijasida mulkning zararlanishi, vayron bo'lishi, hukumat organlarining buyrug'i bilan mulkni musodara, rekvizitsiya qilinishi, yadro reaksiyasi, yadro nurlanish yoki radioaktiv zaxarlanish;

➤ Sug'urta shartnomasida ko'rsatilmagan boshqa hodisalar.

Jismoniy shaxslar mulki quyidagi hollarda sug'urtalanmaydi:

➤ yashash man etilgan avariya holatidagi bino va inshootlar va/yoki buzishga mo'ljallangan inshootlar;

➤ bino, inshoot egasi mazkur hududda istiqomat qilmasa va ushbu inshoot kerakli nazorat ostida bo'lmasa, belgilangan maqsadda ishlatilmasa;

➤ san'at ustalari, xonaki kosiblar tomonidan uyda yasalgan jihozlar;

➤ sug'urtalanuvchining shaxsiy mulki yoki tashkilotga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, Sug'urtalanuvchining uyida joylashgan va tashkilot tomonidan yollab ishlash uchun mo'ljallangan mexanizm va asbob-uskunalarini;

Jismoniy shaxslarning quyidagi mulklari bilan odatda ommaviy sug'urta shartnomalari tuzilmaydi:

➤ qimmatbaho metallardan, qimmatbaho, yarim qimmatbaho (rangli) toshlardan yasalgan buyumlar;

➤ portlovchi moddalar;

➤ hujjatlar, qimmatli qog'ozlar, chek daftarchasi va qog'oz pullar, qo'lyozmalar;

➤ kolleksiyalar (markalar, taqvimlar, etiketkalar, tangalar, ko'krak nishonlari, o'simliklar, minerallar va boshqalar);

➤ nodir asarlar va buyumlar (dunyoda yagona yoki noyob bo'lgan o'tgan zamon va zamonaviy rassomlarning san'at asarlari va bu asarlarning qimmatbaho nusxalari);

➤ transport vositalarining ehtiyot qismlari, uskunolari va boshqa tegishli narsalari.

Jismoniy shaxslar mulki sugʻurtasi shartnomasini tuzish va rasmiylashtirish tartibi quyidagicha boʻladi:

- Sugʻurta shartnomasi tomonlarning kelishuviga binoan 1 yil va undan koʻp muddatga tuzilishi mumkin.

- Sugʻurta shartnomasi, agar unda boshqa holat belgilanmagan boʻlsa, sugʻurta mukofoti yoki uning birinchi qismi toʻlanishi bilan kuchga kiradi.

- Sugʻurtalovchining javobgarligi, agar sugʻurta shartnomasida boshqa holat belgilanmagan boʻlsa, naqd pulli hisob-kitobda sugʻurta mukofoti yoki uning birinchi qismi toʻlanishi bilan va naqd pulsiz hisob-kitobda sugʻurta mukofoti yoki uning birinchi qismi sugʻurtalovchining hisob-kitob raqamiga kelib tushgandan soʻng kuchga kiradi.

- Mulkni sugʻurtalash boʻyicha shartnoma tuzilayotganda Sugʻurtalovchi va Sugʻurtalanuvchi quyidagilar boʻyicha bitimga kelishlari kerak:

- sugʻurta obʻekti boʻlgan mulk yoki boshqa mulkiy qiziqish;

- sugʻurta hodisasining tasnifi haqida /shunday hodisaning tasnifi haqida kelishib olinadi, ushbu voqea (sugʻurta hodisasi) roʻy berishidan sugʻurta qilanadi

- sugʻurta summasining miqdori haqida;

- sugʻurta qoplamasining miqdori haqida, agar shartnomada sugʻurta qoplamasini sugʻurta summasidan kam boʻlgan miqdorda toʻlanishi koʻrsatilgan boʻlsa;

- sugʻurta mukofotining miqdori va uni toʻlash muddati (muddatlari);

- sugʻurta shartnomasini amal qilish muddatlari haqida.

Jahon amaliyotida sugʻurta javobgarligining yoki sugʻurta summasiga bogʻliq ravishda zararni aniqlashning ikki tizimidan foydalaniladi, bulardan birinchisi – mutanosib (proporsional) sugʻurtalash boʻlsa, ikkinchisi – birinchi xatar tizimidir.

³Agar shartnomada sugʻurta summasi mulkning sugʻurta qiymatidan pastroq qilib belgilangan boʻlsa, mutanosib sugʻurtalash tizimida mulkning qisman zarar koʻrishi holatida tovon toʻlovi miqdorining haqiqiy keltirilgan zarar summasi bilan

³Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain, 1993

mutanosibligi orqali aniqlanadi va bunda sug'urta summasining sug'urta qiymatiga mutanosibligi nisbatidan kelib chiqiladi. Zararning sug'urtalanmay qolgan qismiga proporsional bo'lgan qismi bo'yicha javobgarlik sug'urta qildiruvchining o'zzimmasida qoladi. O'zbekistonda birinchi xatar tizimi kamroq qo'llaniladi. Mutanosib sug'urtalashdan farqli o'laroq, birinchi xatar tizimida sug'urta bo'yicha to'lovning faqat yuqori qiymati sug'urta summasining miqdori bilan cheklanadi. Agar birinchi xatar (zarar)ning miqdori sug'urta summasidan kam bo'lsa, to'liq ravishda to'lanadi, ikkinchisi esa – sug'urta summasidan qolgan qismida ko'p bo'lmagan miqdorda to'lanadi va toki sug'urta summasi batamom to'lab bo'linguncha shu tarzda davom etadi. Birinchi xatar tizimidan foydalangilganda tarif mutanosib sug'urta tarifiga nisbatan odatda 10-20 foiz yuqoriroq bo'ladi.

Har qanday da'vo bo'yicha yetkazilgan ziyonni baholashning asosiy qoidasi ziyon yetkazilgan mulk narxini emas, balki uning sug'urta holati ro'y bergan paytdagi va joydagi qiymatini aniqlash hisoblanadi. Agar mulk qiymati polisning amal qilish davri mobaynida o'sgan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi o'sgan qiymat bo'yicha to'lov olishga haqli.

Kelgusi daromadlarni yo'qotish yoki yetkazilgan ziyondan kelib chiqadigan boshqa yo'qotishlar hisobga olinmaydi. Shuningdek, to'lovlar ma'naviy xarajatlarni ham o'z ichiga olmaydi.

Ba'zida mulk to'laligicha yo'q qilinadi va mulkni qutqarish masalasi o'ringa ega bo'lmaydi. Biroq ko'pincha mulk to'laligicha emas, balki uning bir qismiga ziyon etkaziladi. Bunday holatda «qutqarilgan mulk» haqida savol tug'iladi. Sport tovarlari sotiladigan magazin yong'indan ziyon ko'rgan holatni tasavvur qilish qiyin emas. Ayrim buyumlar yonib ketgan, bir qismi tutundan dudlanib qolgan (bu esa sifatning yomonlashuvi sifatida baholanadi), boshqalar esa (masalan, giryalari) olovga bardosh berib, saqlanib qolgan. Sug'urta qildiruvchi o'z yo'qotishlari qiymatini qolgan tovarlarni ma'lum bir tarzda ishlov berishdan so'ng arzonlashtirilgan narxlarda sotishni hisobga olgan holda aniqlashi mumkin. agar sug'urta qildiruvchi mulkni to'liq yo'q qilingan deb hisoblamasa, u to'lovning to'liq hajmda amalga oshirilishini talab qilishga haqli emas.

1.2 Uy-joy sug'urtasini amalga oshirishning huquqiy asoslari

Mulkiy sug'urta shartnomasiga muvofiq bir taraf sug'urtalovchi shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda boshqa tarafga (sug'urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka etkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug'urta puli) doirasida to'lash (sug'urta to'loni to'lash) majburiyatini oladi⁴.

Mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha quyidagilar sug'urtalanishi mumkin:

❖ muayyan mol-mulkning yo'qotilishi (nobud bo'lishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi xavfi;

❖ fuqarolik javobgarligi xavfi - boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha javobgarlik, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, shuningdek shartnomalar bo'yicha javobgarlik xavfi;

❖ tadbirkorlik xavfi - tadbirkorning kontragentlari o'z majburiyatlarini buzishi yoki tadbirkorga bog'liq bo'lmagan vaziyatlarga ko'ra bu faoliyat shart-sharoitlarining o'zgarishi tufayli tadbirkorlik faoliyatidan kutilgan daromadlarni ololmaslik xavfi.

Shuning uchun mol-mulk uning asralishidan qonun hujjatlariga yoki shartnomaga asoslangan manfaatga ega bo'lgan shaxs (sug'urta qildiruvchi yoki naf oluvchi) foydasiga, uning mulkdori, mol-mulkka nisbatan boshqa ashyoviy huquqqa ega bo'lgan shaxs, ijarachi, pudratchi, saqlovchi, vositachi va boshqa shu kabilar foydasiga sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalanishi mumkin.

Sug'urtalangan mol-mulkning asralishidan sug'urta qildiruvchida va naf oluvchida manfaat bo'lmagan paytda tuzilgan mol-mulkni sug'urta qilish shartnomasi haqiqiy emas. SHuning uchun naf oluvchi foydasiga mol-mulkni

⁴O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 52-bobidagi 915-moddasi

sugʻurta qilish shartnomasi naf oluvchining ismi yoki nomi koʻrsatilmasdan tuzilishi mumkin. Bunday shartnoma tuzilganda sugʻurta qildiruvchiga egasining nomi koʻrsatilmagan polis beriladi. Bunday shartnoma boʻyicha huquqlarni amalga oshirishda bu polisni sugʻurtalovchiga taqdim etish zarur⁵.

Shuningdek sugʻurta shartnomasini tuzish paytida taraflarning kelishuviga koʻra aniqlanadigan, sugʻurta manfaati bilan bogʻlanadigan mol-mulk qiymati, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan boʻlsa, sugʻurta qiymati (sugʻurta bahosi) deb hisoblanadi⁶.

Mazkur sugʻurta turini subʼektlari boʻlib, sugʻurtalovchi, sugʻurta qildiruvchi va naf oluvchi hisoblanadilar. Bunda sugʻurta qildiruvchi sugʻurta shartnomasini tuzish vaqtida Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari yoki shartnomaga binoan sugʻurtalanayotgan mol-mulkning asralishidan manfaatdor boʻlgan boshqa jismoniy va yuridik shaxsni naf oluvchi sifatida koʻrsatishi mumkin. SHu bilan bir qatorda sugʻurta qildiruvchining (naf oluvchining) Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid boʻlmagan quyidagilar bilan bogʻliq mulkiy manfaatdorligi sugʻurta obʼektlari hisoblanadi:

- ✓ sugʻurtalangan mulkka egalik qilish, undan foydalanish va (yoki) tasarruf qilish;

- ✓ sugʻurtalangan mulkdan foydalanish natijasida uchinchi shaxslarning mulkiga etkazilgan zararni (ziyonni) Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qoplab berish majburiyati.

SHuningdek uy-joy sugʻurtasi boʻyicha quyidagi koʻchmas mulk sugʻurtalanishi mumkin:

- a) bino, qurilma va inshootlarning konstruktiv qismlari (tashqi, ichki va xonalarni ajratuvchi devorlar, toʻsiqlar, alohida ustunlar, zinapoyalar, tom), shuningdek deraza va eshik konstruksiyalari (elektr sim (tarmoq)lari, isitish tizimi, suv taʼminoti, kanalizatsiya va gaz taʼminoti quvurlari bundan mustasno);

⁵Oʻzbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksining 52-bobidagi 917-moddasi

⁶Oʻzbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksining 52-bobidagi 935-moddasi

b) pardoziy elementlari, jumladan barcha turdagi tashqi va (yoki) ichki suvoq va bo'yovchilik ishlari, shuningdek yopishtirilgan pardoziy ishlari, devorlarni, shiftni, polni, xonalarni ajratib turuvchi eshik konstruksiyalari, ularning oynalari bilan birgalikda, xonalarni ajratib turuvchi deraza konstruksiyalari;

v) muhandislik-texnik uskunalari, jumladan isitish tizimlari (isitish radiatorlari), elektr simlari, suv ta'minoti tizimlari (suv chiqarish moslamalari, rakovinalar, vannalar, dush xonachalari va boshqalar), kanalizatsiya tizimlari (xojatxonalarining santexnika uskunalari).

Uy-joy sug'urtasi bo'yicha quyidagilar sug'urta qilinmaydi:

a) har qanday ko'char mulk, shuningdek sug'urtalangan bino, qurilma tashqarisiga mahkamlab qo'yilgan predmetlar (yopqich ayvonchalar, soyabon bo'g'ot, panjaralardan tashqari);

b) eskirib ketgan yoki avariya holatidagi yoki davlat organlarining farmoyishiga ko'ra buzib tashlanishi ko'zda tutilgan binolar, qurilmalar va inshootlar;

v) er o'pirilishi, ko'chki, suv toshqini xavf tug'diradigan hududda joylashgan mulk, shuningdek harbiy harakatlar yoki tabiiy ofatlar hududida joylashgan mulk, agar bunday xavf sug'urta shartnomasi tuzilgunga qadar belgilangan tartibda rasman e'lon qilingan bo'lsa;

g) qurilishi tugallanmagan, kapital ta'mirlash uchun yoki boshqa sabablarga ko'ra uzoq muddatga ulardan belgilangan maqsadga muvofiq foydalanayotgan shaxslar tomonidan bo'shatib qo'yilgan binolar, qurilmalar va inshootlar;

d) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq muomaladan chiqarilgan (musodara qilingan) yoki muomalasi cheklangan mulk; e) ko'p xonadonli uylarda joylashgan xonadonlar va boshqa turar joy xonalari.

Uy-joy sug'urtasida sug'urta hodisalarining biri yoki bir nechitasi sodir bo'lganida sug'urta qildiruvchi yoki sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxslarning (naf oluvchining) mulkiy manfaatlariga sug'urta himoyasini taqdim etadi. SHu bois quyidagilar sug'urta hodisasi deb hisoblanadi:

a) sug'urta davri va sug'urta joyida sug'urtalangan mulkning quyidagi xavflar oqibatida yo'qotilishi (nobud bo'lishi) yoki shikastlanishi: yong'in, yashin urishi, gaz portlashi, suv tufayli shikastlanish, tabiiy ofatlar, jala, shiddatli qor yog'ishi, buzib o'g'rilik sodir etish, uchinchi shaxslarning noqonuniy hatti-harakatlari. Bunda, agar yuqorida ko'rsatilgan hodisalarning birortasi sug'urta joyidan tashqarida yuz bersa, hamda bu hodisa natijasida mulkdan foydalanish imkoniyati yo'qolsa, bunday hodisa ham sug'urta hodisasi deb hisoblanadi. Mulkdan foydalanish imkoniyatining yo'qolganligi mas'ul organlarning tegishli qarorlari bilan tasdiqlanishi lozim.

b) sug'urtalangan mulkdan sug'urta davrida sug'urta joyida foydalanishda sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) uchinchi shaxslar mulkiga zarar etkazganligi uchun fuqarolik javobgarligining yuzaga kelishi.

Agar ular quyidagilar natijasida yuz bergan bo'lsa sug'urta hodisasi deb tan olinmaydi:

a) turli ko'rinishdagi harbiy harakatlar, fuqarolik urushi yoki ularning oqibatlari, xalq g'alayonlari, ish tashlashlar, lokautlar, harbiy yoki fuqarolik hokimiyatining ko'rsatmasiga binoan mulkning musodara qilinishi, rekvizitsiyasi, xatlanishi, yo'q qilinishi yoki shikastlanishi;

b) yadro energiyasining har qanday shakldagi ta'siri;

v) sug'urta qildiruvchi, naf oluvchi, sug'urta qildiruvchi bilan birga rasman istiqomat qiladigan muomalaga layoqatli shaxslar, shuningdek juda bo'lmaganda o'z nomidan, lekin sug'urta qildiruvchi yoki naf oluvchi ruxsati bilan va sug'urta qildiruvchi yoki naf oluvchi manfaatlarini ko'zlab harakat qilgan shaxslarning qasddan (qo'pol extiyotsizligi), jumladan yuqoridagi shaxslarning birortasi tomonidan sug'urtalangan mulkdan foydalanish qoidalarining buzilishi (jumladan, lekin cheklanmasdan: yong'in xavfsizligi qoidalari, yong'indan xavfli yoki portlovchi moddalar va buyumlarni saqlash qoidalari va boshqalar); Izoh: sug'urta qildiruvchi, naf oluvchi, ularning oila a'zolari, qarindoshlari yoki vakillari, agar ular o'zlarining harakati (harakatsizligi) xavf tug'dirishini anglab etganlarida, sug'urta hodisasi yuz berishi mumkinligini payqaganlarida va sug'urta hodisasi

yuz berishiga ongli ravishda yo‘l qo‘ysalar yoki unga befarq munosabatda bo‘lgan bo‘lsalar, qasddan harakat qilgan deb hisoblanadilar.

g) ekspluatatsiyaning doimiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillari (emirilishi, korroziya) va mahalliy joyga xos bo‘lgan iqlim va ob-havo sharoitining sekin-asta ta’siri ostida shikastlanishi, agar ular O‘zbekiston Respublikasi Gidrometmarkazi tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa;

d) namlikning oddiy ta’siri, atrof havosining yuqori va (yoki) manfiy harorati (shu jumladan uning o‘zgarishi), xo‘llanish, jala, shiddatli qor yog‘ishi, qo‘shni binolardan, qurilmalardan, tomlardan tashqi devorlarga suyuqlik tushishi natijasida ularning konstruktiv xususiyatlari buzilmagan holda tashqi kosmetik shikastlanishi;

e) mexanik sinish (nosozlik) yoki buzilishlar,

j) sug‘urtalangan mulkning o‘z-o‘zidan yonib ketishi, bijg‘ishi, chirishi yoki boshqa tabiiy xususiyatlari, shuningdek bino ichidagi davomli namgarchilik ta’siri natijasida mog‘or, po‘panak bosishi orqali zararlanishi, ifloslanishi yoki chirib ketishi;

z) sug‘urtalangan mulkka texnologik jarayonga muvofiq olov yoki issiqlik bilan ishlov berish (masalan: quritish, qaynatish, dazmollash, dudlash, qovurish, eritish, kuydirish, termik ishlov berish va boshqalar uchun), sug‘urtalangan mulkni (xonani) yig‘ishtirish va tozalash ishlari;

i) ochiq qoldirilgan derazalar, eshiklar va oldindan ataylab qoldirilgan yoki bino, qurilma va inshoatlar konstruksiyasining eskirishi (chirishi) yoki nuqsoni natijasida hosil bo‘lgan tirqishlar, shuningdek sug‘urta davrining boshlanish vaqtida mavjud bo‘lgan gidrohimoya nuqsonlarining va panel oralig‘idagi (bloklar) choklar, poydevorlar, tashqi devorlar nuqsoni tufayli sug‘urtalangan bino (mulk) ichkarisiga suyuqlik, shu jumladan yomg‘ir, qor, do‘l va loyqaning oqib kirishi;

k) sug‘urtalangan mulkni ta’mirlash yoki rekonstruksiya (qayta rejalashtirish/planirovkasini o‘zgartirish) ishlarining olib borilishi, shuningdek sug‘urtalangan mulkni ta’mirlash yoki rekonstruksiya (qayta rejalashtirish

planirovkasini o'zgartirish)ni amalga oshirilishi, shu jumladan qo'shni bino va xonalarda ta'mirlash yoki rekonstruksiya (qayta rejalashtirish/planirovkasini o'zgartirish) ishlarini amalga oshirilishi natijasida sug'urtalangan mulkning qulab tushishi, yorilishi yoki boshqa nuqsonlarning paydo bo'lishi, sug'urtalangan mulk hududida yoki unga bevosita yaqin hududda portlatish ishlarining olib borilishi, erdan tuproq qazib chiqarish, bo'sh chuqurlarni to'ldirish, tuproqni zichlash, tuproq va qurilish-montaj ishlarini olib borish, foydali er-osti boyliklarini qazib chiqarish yoki kon ishlarini tashkil etishni amalga oshirish;

l) sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) tomonidan avariya holatidagi yoki eskirib ketgan suv o'tkazish, isitish, kanalizatsiya va yong'inga qarshi tizimlardan foydalanish, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) tomonidan yuqoridagi tizimlarning ekspluatatsiya me'yoriy muddatlarining buzilishi yoki ularga rioya etmaslik;

m) imorat yoki uning qismining qulab tushishi, agar bunday hodisa sug'urta hodisasi oqibati bo'lmasa, shuningdek sug'urtalovchi majburiyatlarining kuchga kirishi vaqtida mavjud bo'lgan va sug'urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) ma'lum bo'lishi lozim bo'lgan sug'urtalangan mulkning nuqsonlari hisoblanmasa;

n) sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) bilan birga rasman istiqomat qiladigan shaxslar tomonidan sug'urtalangan mulk qulfini buzish orqali o'g'rilik sodir etilishi;

o) sug'urta qildiruvchi, naf oluvchi, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) bilan birga rasman istiqomat qiladigan shaxslarning sug'urtalangan joyda bo'lgan vaqtida o'g'rilik sodir etilishi, shuningdek bu o'g'rilik sug'urta hodisasi yuz bergan vaqtda yoki bevosita undan keyin yuz bersa;

p) sug'urtalangan mulk sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) tomonidan shartnoma asosida ijaraga, lizingga va shu kabi shartlarda uchinchi shaxslarga berilganda ularning, ya'ni uchinchi shaxslarning sug'urtalangan mulkka nisbatan noqonuniy harakatlari;

r) sug'urta qildiruvchiga yoki naf oluvchiga, ularning qarindoshlariga yoki qo'l ostida ishlaydigan shaxslariga tegishli bo'lgan yoki yuqoridagi shaxslar

ixtiyoriga vaqtinchalik foydalanishga berilgan transport vositalari, hayvonlar yoki uchuvchi moslamalarning sug'urtalangan mulkka urilishi, to'qnashib ketishi;

s) sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) shikastlangan predmetlar yoki ularning qoldiqlarini sug'urtalovchiga ko'rsatishdan bosh tortganda, predmetlar hech bir qoldiqsiz yo'q bo'lib ketishi mumkin bo'lgan holatlar bundan mustasno.

SHuningdek quyidagilar bilan bog'liq zararlarni sug'urtalovchi to'lab bermaydi:

a) ijara to'lovlari tushumining to'xtab qolishi, yo'qotilishi;

b) davlat idoralarining ko'rsatmasiga binoan sug'urtalangan mulkning tortib olinishi, musodara qilinishi, rekvizitsiyasi, xatlanishi yoki yo'q qilinishi (buzib tashlanishi va boshqalar), hududni tozalash, zararlangan mulkni va (yoki) uning qoldiqlarini, axlatni olib chiqish ketish;

v) sug'urtalangan xonalardan tashqarida joylashgan quvurlarni va ularga ulangan tizim va uskunalarni ta'mirlash yoki almashtirish xarajatlari;

g) uchinchi shaxslarning hayoti va (yoki) sog'lig'iga etkazilgan zarar o'rnini qoplash;

d) ma'naviy zararni qoplash;

e) boshqa bilvosita zararlar (masalan, yo'qotilgan foyda), garchi ular sug'urta hodisasi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa ham;

j) sud harajatlari, shuningdek jarimalar, penya, neustoyka va shu kabi to'lovlar.

Uy-joy sug'urtasida sug'urta qildiruvchi quyidagilarni tasdiqlaydi va roziligini bildiradi:

a) agar sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan yong'in xavfsizligi me'yorlari va qoidalari, gazdan maishiy sharoitda foydalanish qoidalari, ishni olib borish xavfsizligi yoki boshqa shunga o'xshash me'yorlar buzilsa, yoki, agar bunday qoida buzilishlar sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) ijozati bilan amalga oshirilayotgan bo'lsa, bunday qoidabuzarliklar xavf darajasini oshiruvchi holat sifatida qarab chiqiladi;

b) agar sug'urta qildiruvchi (polis bo'yicha fuqarolik javobgarligi sug'urtalangan boshqa shaxs) sug'urtalangan mulkdan foydalanish vaqtida jabrlangan uchinchi shaxs (uning merosxo'ri yoki qonuniy vorisi)ga etkazilgan zararni sug'urtalovchining yozma rozilgisiz har qanday yo'l bilan to'lab bersa yoki uni qoplab berish bo'yicha va'da bergan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi (polis bo'yicha fuqarolik javobgarligi sug'urtalangan boshqa shaxs)ning bu hatti-harakatlari sug'urtalovchi uchun majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi;

v) sug'urtalovchining talabiga binoan sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) unga zararni bartaraf etish yoki da'volarva talablarni ko'rib chiqishda, moddiy zarar etkazilganligi to'g'risidagi dalolatnomalarni tuzishda, jabrlanuvchilar bilan kelishuv bitimlarini imzolashda, sud va boshqa instansiyalarda qarshi da'vo arizalari berishda sug'urta qildiruvchining manfaatlarini himoya qilishni tasdiqlovchi yozma ishonchnoma berishga majbur;

g) sug'urtalovchi, agar buni maqsadga muvofiq deb hisoblasa, etkazilgan moddiy zarar va sug'urta tovoninini to'lash bo'yicha talab va da'volarni hal etish masalasi yuzasidan jabrlangan uchinchi shaxslar bilan bevosita birga harakat qiladi.

Uy-joy sug'urtasida sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagi huquqlarga ega:

- ✓ polis yo'qolgan taqdirda uning dublikatini olish;
- ✓ sug'urta hodisasi yuz berganda, ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda sug'urta tovonini olish;
- ✓ polisni muddatidan ilgari bekor qilish;
- ✓ sug'urtalovchidan ushbu Qoidalar doirasida maslahat olish.

Uchinchi shaxs (jabrlanuvchi)lar quyidagi huquqlarga egalar:

- ✓ sug'urta hodisasi yuz berganda, ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda sug'urta tovonini olish;
- ✓ sug'urta voqeasini tekshirish jarayonida ishtirok etish;
- ✓ sug'urta voqeasini tekshirish natijalariga ko'ra qabul qilingan sug'urtalovchining qarori ustidan shikoyat qilish;

✓ sugʻurtalovchidan ushbu Qoidalar va polis doirasida oʻzining huquq va majburiyatlari yuzasidan maʼlumotlarni bepul olish;

✓ polis doirasida oʻzining huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish.

Uy-joy sugʻurtasida uchinchi shaxslar (jabrlanuvchilar) quyidagilarga majbur:

✓ mutasaddi vakolatli organlar tomonidan berilgan, zarar koʻrilganlik holatini tasdiqlovchi va uning miqdorini belgilovchi zarur hujjatlarni taqdim etish;

✓ yuz bergan sugʻurta hodisasini mustaqil ekspertiza qilish borasida sugʻurtalovchiga koʻmaklashish;

✓ Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq boshqa majburiyatlar.

Sugʻurta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarga majbur:

✓ sugʻurta mukofotini toʻlash;

✓ sugʻurtalangan mulkni uning belgilangan texnik maqsadlariga muvofiq boʻlmagan tarzda foydalanish koʻzda tutilayotganda, sugʻurtalovchini bu haqda darhol yozma ravishda xabardor qilish;

✓ ehtimol tutilgan zarardan qutqarib qolish, uni kamaytirish va oldini olish uchun oqilona va mazkur sharoitda mumkin boʻlgan choralarni koʻrish;

✓ sugʻurtalangan mulkni taʼmirlash-tiklash ishlarini boshlashdan oldin sugʻurtalovchi bilan mulkni koʻrikdan oʻtkazish vaqti va sanasini kelishib olishi hamda ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan va sugʻurtalovchiga tovon toʻlab berishni talab qilish ehtimolini paydo qiluvchi hodisa yuz berganda har qanday taʼmirlash-tiklash ishlarini uning yozma rozilgisiz boshlamaslik. Bunda, agar sugʻurta qildiruvchi taʼmirlash-tiklash ishlarini bajarish boʻyicha yozma bildirishnomasi orqali sugʻurtalovchini xabardor qilgandan soʻng sugʻurtalovchi sugʻurtalangan mulkni koʻrikdan oʻtkazish huquqidan 2 (ikki) ish kuni davomida foydalanmasa, sugʻurta qildiruvchi sugʻurta qilingan mulkning barcha zararlangan qism (element)larini fotosuratga va videotasvirga tushirib, taʼmirlash-tiklash ishlarini bajarishdan oldin ularni sugʻurtalovchiga taqdim etishi kerak;

✓ sugʻurtalovchiga roʻy bergan hodisaning barcha holatlarini oʻrganib chiqishi uchun ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan barcha hujjatlarni taqdim etish;

✓ sugʻurta qilingan mulkni Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilangan yongʻin xavfsizligi meʼyor va qoidalariga, gazdan maishiy sharoitda foydalanish qoidalariga, sugʻurtalangan mulkdan foydalanish, unga texnik xizmat koʻrsatish yoʻriqnomalari(qoidalari) talablariga, sugʻurtalangan mulkni taʼmirlash va (yoki) profilaktika ishlarini amalga oshirish xavfsizligiga rioya qilish, zarur taʼmirlash va (yoki) profilaktika ishlarini oʻz vaqtida bajarish;

✓ sugʻurta joyida suv oʻtkazish, kanalizatsiya, isitish va va yongʻin xavfsizligi tizimidan muvofiq tarzda foydalanish, ularga oʻz vaqtida xizmat koʻrsatilishi va taʼmirlanishini taʼminlash;

✓ bino, qurilma va inshootlarda individual suv bilan isitish tizimidan foydalanishda tanaffus boʻlganda havoning manfiy haroratida isitish tizimidan suvni chiqarib (toʻkib) tashlash;

✓ sugʻurta qildiruvchi (naf oluvchi) va (yoki) u bilan birga rasman istiqomat qiladigan shaxslar yoʻq vaqtda sugʻurtalangan imoratlarning (xonalarning) kirish eshiklarini va barcha deraza-romlarining qulflanishini taʼminlash;

✓ sugʻurta qildiruvchi (naf oluvchi) bilan birga rasman istiqomat qiladigan shaxslarni ushbu Qoidalarning talab va shartlari bilan tanishtirish;

✓ sugʻurta voqeasi yuz berganda sugʻurtalangan mulkni qarovsiz qoldirmaslik va keyingi zarar yoki yoʻqotishlarni oldini oluvchi tegishli tadbirlarni amalga oshirish;

✓ sugʻurtalovchi yoki uning vakillariga istalgan vaqtda sugʻurtalangan mulk va uning barcha qism (element)larini koʻrikdan oʻtkazish uchun imkoniyat yaratib berish;

✓ aybdor tomonidan zarar qoplangan boʻlsa, olingan sugʻurta tovonini sugʻurtalovchiga qaytarib berish;

✓ agar Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida koʻzda tutilgan daʼvo muddatlari ichida sugʻurta qildiruvchini (naf oluvchini) zararni qoplash huquqidan qonunchilikka yoki ushbu Qoidalarga muvofiq butunlay yoki qisman mahrum qilinishiga olib keladigan holatlar aniqlansa, u holda sugʻurtalovchiga olingan sugʻurta tovonini toʻliq hajmda yoki belgilangan qismini qaytarib berish.

Sugʻurtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

- ✓ sugʻurta shartnomasi tuzilgandan soʻng, sugʻurta qildiruvchi (naf oluvchi) sugʻurta hodisasi yuz berish ehtimolini va uning yuz berishi ehtimolidan koʻrilgan zararni aniqlashga ahamiyati bor holatlarni bilgan holda sugʻurtalovchiga oldindan notoʻgʻri maʼlumotlar berganligi aniqlanganda, Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida oʻrnatilgan tartibga koʻra polisning haqiqiy emas deb topilishini talab qilish;

- ✓ sugʻurta qildiruvchi yoki sugʻurta tovonini olishga haqli boshqa shaxsdan ushbu Qoidalar boʻyicha majburiyatlarining bajarishini talab qilish;

- ✓ sugʻurta hodisasi yuz berishi ehtimolini kamaytirishga yoʻnaltirilgan ogohlantirish tadbirlarini oʻtkazish, shuningdek zararni kamaytirishda zarur hisoblagan boshqa tadbirlarni amalga oshirish;

- ✓ zararning yuzaga kelish sabablari va holatlarini mustaqil ravishda aniqlash, etkazilgan zarar miqdorini belgilash, shuningdek sugʻurta hodisasi alomatlariga ega boʻlgan hodisa yuz berganligini tasdiqlovchi, uning sabablari va koʻrilgan zarar miqdorini belgilovchi hujjatlar va maʼlumotlarni olish yuzasidan vakolatli organlarga soʻrovnoma orqali murojaat qilish;

- ✓ sugʻurta hodisasi alomatlariga ega boʻlgan hodisaning barcha holatlariga aniqlik kiritilgunga qadar shuningdek, sugʻurta qilingan mulkning shikastlanishi, nobud boʻlishi yoki yoʻqotilishi holati yuzasidan mutasaddi idoralarga yuborilgan soʻrovlarga javob olinguncha, sud hukmi (qarori) chiqquncha yoki jinoiy (maʼmuriy, fuqarolik) ishi yuzasidan ish yuritishning toʻxtatib turilishi sababli sugʻurta tovonini toʻlab berish boʻyicha qaror qabul qilishni kechiktirish;

- ✓ sugʻurta xavfini ortishiga olib keluvchi holatlar toʻgʻrisida xabardor boʻlganda, polis hamda mazkur Qoidalar shartlariga oʻzgartirish kiritishni yoki qoʻshimcha sugʻurta mukofoti toʻlanishini talab qilish;

Sugʻurtalovchi quyidagilarga majbur:

- ✓ sugʻurta mukofoti toʻliq xajmda toʻlangandan soʻng sugʻurta qildiruvchiga polis yozib berish;

✓ polisni taqdim qilish vaqtida sugʻurta qildiruvchiga ushbu Qoidalarni berish;

✓ sugʻurta hodisasi yuz berganda sugʻurta qildiruvchiga (naf oluvchiga) va (yoki) jabrlangan uchinchi shaxsga sugʻurta tovonini ushbu Qoidalarda koʻzda tutilgan tartibda va muddatlarda toʻlab berish;

✓ sugʻurta qildiruvchidan olingan maʼlumotlarni Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sir tutish va oshkor qilmaslik.

1.3 Uy-joy sugʻurtasida sugʻurta tovonini toʻlash tartibi

Sugʻurta hodisasi yuz berganda, sugʻurta qildiruvchi yoki sugʻurta tovonini olishga haqli boshqa shaxs quyidagilarni bajarishga majbur:

sugʻurta voqeasi yuz bergandan keyin darhol, ikki ish kunidan kechiktirmay, unga maʼlum boʻlgan zahoti (sugʻurta qildiruvchi va (yoki) u bilan birga istiqomat qiluvchilarning ikki kundan koʻp sugʻurta joyida boʻlmagan holatda) sugʻurtalovchini istalgan oʻziga qulay usul bilan (polisda koʻrsatilgan raqamga telefon orqali qoʻngʻiroq qilish, elektron xat yuborish, faks joʻnatish va hokazo) xabardor qilish;

darhol vakolatli idoralarga (YOXB, IIB, FVV, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari va boshq.) darhol xabar berish, hodisa sodir boʻlgan joyda albatta bayonnoma yoki Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni tuzish va (yoki) fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlariga (avariya kommunal xizmatiga) zudlik bilan xabar berish, hodisa sodir boʻlgan joyda albatta dalolatnoma yoki boshqa hujjatlarni tuzish;

zararning oldini olish va kamaytirish uchun barcha zarur choralarni koʻrish, shuningdek sugʻurtalovchining yozma ravishda berilgan tavsiyalarini bajarish, bu borada xuddi mulk sugʻurta qilinmagan holatdagidek harakat qilish kerak;

shikast etgan sugʻurtalangan mulkni sugʻurtalovchiga taʼmirlash qayta tiklash ishlari boshlangunga qadar koʻrikdan oʻtkazish uchun taqdim etish. Bunda, agar sugʻurtalovchi shikast etgan sugʻurtalangan mulkni koʻrikdan oʻtkazish huquqidan

sugʻurta qildiruvchining taʼmirlash-qayta tiklash ishlarini amalga oshirish toʻgʻrisidagi yozma bildirishnomasi sugʻurtalovchiga taqdim etilganidan soʻng 2 (ikki) ish kuni davomida foydalanmasa, sugʻurta qildiruvchi (naf oluvchi) sugʻurta qilingan mulkning barcha zararlangan qism (element)larini fotosuratga va videotasvirga tushirib, uni taʼmirlash-tiklash ishlarining bajarilishidan oldin sugʻurtalovchiga taqdim etishi kerak.

SHuningdek sugʻurta qildiruvchi yoki sugʻurta tovonini olish huquqiga ega boshqa shaxs sugʻurta voqeasi yuz berganligi qayd qilingan murojaatiga quyidagi hujjatlarni ilova qilishi zarur:

- ❖ mulkning nobud boʻlishi yoki shikastlanishida:

- ❖ polisning asli;

- ❖ yuz bergan hodisa tafsilotlarini tekshirish va (yoki) shikastlangan mulkni koʻrikdan oʻtkazish vakolatiga ega boʻlgan tegishli mutasaddi organlar (YOXB, IIB, FVV, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari va boshq.) tomonidan berilgan tasdiqlovchi hujjatlar (qaror, xulosa, maʼlumotnoma, dalolatnoma va hk.);

- ❖ shikastlangan mulkka egalik qilish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar (kadastr hujjatlari, oldi-sotdi, qarz olish-berish, ijara shartnomalari, cheklar, texnik pasportlar va boshqalar) nusxalari;

- ❖ baholovchi (pudratchi, smeta) tashkiloti tomonidan shikastlangan mulkni tiklash uchun zarur boʻlgan barcha ishlar, sarflanadigan materiallar roʻyxati koʻrsatilib tuzilgan hisobot (baholash hisoboti, smeta, moddiy zarar dalolatnomasi)ning asl nusxasi;

- ❖ tabiiy ofatlar roʻy bergan holatlarda vakolatli idoralar (“Oʻzgidromet” markazi, Davlat geologiya qoʻmitasi, FVV va boshqalar) tomonidan berilgan maʼlumotnoma;

- ❖ jinoiy ish qoʻzgʻatilgan holatlarda – hodisa boʻyicha jinoiy ish qoʻzgʻatilgani va toʻxtatilgani yoki ishning sudga oshirilgani toʻgʻrisidagi qarorning tergov organlari tomonidan tasdiqlangan nusxalari;

❖ sugʻurtalovchi talab qilishi mumkin boʻlgan zarar etkazilishi holatini, shuningdek sodir boʻlgan hodisa sabablari va tafsilotlarini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar. Agarda uchinchi shaxslar mulkiga zarar etkazilganda:

❖ polisning asl nusxasi;

❖ yuz bergan hodisa bilan bogʻliq sugʻurta qildiruvchi olgan hujjatlar (jabrlangan uchinchi shaxsning daʼvo arizasi, xatlar, chaqiruv bildirgilari va xokazolar) nusxalari;

❖ sugʻurta voqeasining yuz berish sabablarini tekshirish vakolatiga ega boʻlgan idoralar va (yoki) fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari tomonidan berilgan voqeaning tasdiq hujjati (qaror, maʼlumotnoma);

❖ jabrlangan uchinchi shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar;

❖ baholovchi tashkilot tomonidan (mulkka zarar etkazilganda) tuzilgan moddiy zararni baholash hisobotining asl nusxasi;

❖ polis boʻyicha sugʻurtalovchining javobgarligi koʻlamiga kiruvchi, sugʻurta hodisasi yuz berganda u tomonidan qoplab berilishi lozim boʻlgan summa miqdori koʻrsatilgan sud organining qarori;

❖ sugʻurtalovchi talab qilishi mumkin boʻlgan zarar etkazilishi faktini, shuningdek sodir boʻlgan voqea sabablari va tafsilotlarini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.

Uy-joy sugʻurtasida sugʻurta voqeasiga taalluqli barcha tafsilotlar oʻrganib chiqilganidan keyin sugʻurtalovchi sodir boʻlgan sugʻurta voqeasini sugʻurta hodisasi sifatida tan olinishi yoki olinmasligi toʻgʻrisida qaror chiqaradi. SHundan soʻng sodir boʻlgan sugʻurta voqeasi sugʻurtalovchi tomonidan sugʻurta hodisasi deb topilsa, etkazilgan zarar boʻyicha toʻlanadigan sugʻurta tovonining miqdori belgilanib, u sugʻurta hodisasi toʻgʻrisidagi dalolatnomada koʻrsatiladi. SHu bilan birga sugʻurtalovchining sugʻurta tovonini toʻlashni rad etish toʻgʻrisidagi qarori sugʻurta qildiruvchiga (naf oluvchiga) sugʻurta pulini toʻlash toʻgʻrisidagi murojaatnoma sugʻurtalovchi talab qilib olgan barcha hujjatlar bilan birga takdim etilganidan keyin 2 (ikki) kundan kechiktirmagan holda etkazilishi va rad javobi dalillar bilan asoslab berilishi kerak.

Sug'urtalangan mulkni nobud bo'lishi yoki shikastlanishida to'lanadigan sug'urta to'lovi mulkning konstruktiv elementlariga nisbatan quyidagi tartibda to'lab beriladi:

➤ mulkning yo'qotilishida (nobud bo'lishida) ko'rilgan zarar miqdorida, lekin polisda ko'rsatishgan sug'urta pulidan ko'p bo'lmagan miqdorda, kelgusida foydalanishga yaroqli mulk qoldiqlari summasi va belgilangan franshiza summasini ayirib tashlagan holda, tovon to'lanadi. SHu bilan birga, agar ko'rilgan zarar sug'urta pulidan ortiq bo'lsa, u holda franshiza sug'urta pulidan ayirilib tashlanib to'lanadi;

➤ mulkning shikastlanishida (qisman yo'qotilishida) – tiklash uchun sarflanadigan harajatlar miqdoridan kelgusida foydalanishga yaroqli mulk qoldiqlari summasi va franshiza summasini ayirib tashlagan holda, lekin polisda ko'rsatilgan sug'urta pulidan ortiq bo'lmagan miqdorda tovon to'lanadi. Agar tiklash uchun sarflangan xarajatlar summasi sug'urta pulidan ortiq bo'lsa, u holda franshiza sug'urta pulidan ayirib tashlanadi. Muhandislik-texnik uskunalar va pardoqlash elementlariga nisbatan quyidagi tartibda to'lab beriladi ko'rilgan zarar miqdoridan kelgusida foydalanishga yaroqli mulk qoldiqlari summasi va franshiza summasi ayirib tashlangandan so'ng polisda belgilangan javobgarlik limiti va o'rnatilgan sublimitlardan ortmagan holda:

➤ muhandislik-texnik uskunalar sug'urta qilinganda – konstruktiv elementlar uchun belgilangan sug'urta pulining 2%dan ko'p bo'lmagan miqdorida;

➤ pardoqlash elementlari sug'urta qilinganda:

➤ pol pardoqlash elementlariga nisbatan polisda belgilangan javobgarlik limitining 40% miqdorida;

➤ devorlar pardoqlash elementlariga nisbatan polisda belgilangan javobgarlik limitining 40% miqdorida;

➤ shift pardoqlash elementlariga nisbatan polisda belgilangan javobgarlik limitining 20% miqdorida. Bunda, yong'in yoki zilzila yuz berganda pardoqlash elementlari bo'yicha sug'urta to'lovi yuqorida ko'rsatilgan pardoqlash elementlari uchun o'rnatilgan sublimitlarni qo'llamasdan tiklashga ketgan xarajatlar

miqdorida, lekin pardoqlash elementlari uchun belgilangan tovon limitlarining ikki baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorida belgilanadi. Sug'urtalangan mulk batamom nobud bo'lganda sug'urta tovonni pardoqlash elementlari uchun belgilangan sublimitlarni qo'llamasdan konstruktiv elementlar uchun belgilangan sug'urta puli miqdorida amalga oshiriladi.

Shu bilan birga tiklash uchun sarflanadigan xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ❖ ta'mirlash (tiklash) uchun zarur bo'lgan materiallar va ehtiyot qismlar xarajatlari;

- ❖ ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun to'lanadigan ish haqi;

- ❖ ta'mirlash joyiga materiallarni etkazib berish va sug'urtalangan mulkni bevosita sug'urta hodisasi yuz bergunga qadar bo'lgan holatiga keltirish uchun zarur boshqa xarajatlar;

- ❖ sug'urta hodisasi oqibatida sug'urta joyini uyumlardan, qoldiq jismlardan, axlatlardan tozalash xarajatlari, konstruktiv elementlarni sug'urta qilish uchun o'rnatilgan sug'urta pulining 1%dan ortmagan miqdorida.

Tiklash uchun sarflanadigan xarajatlar tarkibiga quyidagilar kirmaydi:

- sug'urtalangan mulkni qayta to'g'rilash/o'zgartirish, tuzatish, yangilash, yaxshilash va o'zgartirish bilan bog'liq qo'shimcha sarf-xarajatlar;

- vaqtincha yoki yordamchi (qo'shimcha) ta'mirlash yoki tiklash bilan bog'liq sarf-xarajatlar;

- barcha bevosita va bilvosita soliqlar;

- keragidan ortiqroq qilingan boshqa xarajatlar.

Sug'urtalovchi ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan voqealar natijasida ko'rilgan zararining haqiqiy miqdorini aniqlash uchun mustaqil ekspertlarni jalb qilish huquqiga ega. SHu bilan bir qatorda sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta davri mobaynida yuz bergan barcha sug'urta hodisalari bo'yicha to'lab berilgan sug'urta tovonni polisda belgilangan sug'urta pulidan (koplab berish limitidan) ortmasligi kerak. YUz bergan sug'urta hodisasi bo'yicha ko'rilgan zarar uchinchi shaxslar tomonidan to'lab berilgan hollarda, sug'urtalovchi qoplab berilishi kerak

bo'lgan summadan uchinchi shaxs to'lab bergan summani chegirgan holda qolgan farqini to'lab beradi. Uchinchi shaxslarning mulkiga zarar etkazilganda sug'urta tovoniga mulkning yo'q bo'lishi yoki zarar etishi tufayli etkazilgan to'g'ridan-to'g'ri haqiqiy zarar kiritilib, u mulkning batamom nobud bo'lishida – mulkning haqiqiy qiymati ko'rilgan zarar miqdoridan kelgusida foydalanishga yaroqli mulk qoldiqlari qiymati va belgilangan franshiza summasini ayirib tashlagan holda; mulk qisman shikastlanganda - sug'urtalangan mulkni sug'urta hodisasi yuz bergunga qadar bo'lgan holatiga keltirish (qayta tiklash) uchun zarur xarajatlar kelgusida foydalanishga yaroqli mulk qoldiqlari summasi va belgilangan franshiza summasini ayirib tashlagan holda to'lab beriladi.

Shuningdek ro'y bergan sug'urta hodisasi, ko'rilgan zarar yuzasidan jabrlangan uchinchi shaxsning sug'urta tovonini olish huquqi va sug'urta qildiruvchining etkazilgan zararni qoplash majburiyati, sug'urta hodisasi va yuzaga kelgan zarar hamda etkazilgan zarar miqdori bo'yicha nizo bo'lmagan hollarda da'vo qilingan talablar qondirilib sug'urta tovonini to'lash masalasi suddan tashqari tartibda hal qilinib, to'lab beriladi. Ko'rilgan zarar miqdorini va sug'urta tovonini miqdorini suddan tashqari tartibda aniqlash sug'urtalovchi tomonidan vakolatli organlarning etkazilgan zarar va uning oqibatlari haqidagi hujjatlari shuningdek, xarajatlarni tasdiqlovchi ma'lumotnomalar, hisoblar va boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Barcha holatlarda sug'urta tovonini miqdorini aniqlashda ishtirok etish uchun sug'urta qildiruvchi taklif qilinishi shart. YUqorida qayd qilingan hujjatlar asosida sug'urtalovchi, sug'urta qildiruvchi va jabrlanuvchi uchinchi shaxs tomonidan imzolanadigan sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma tuziladi.

Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta tovonini to'lab berish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: sug'urtalangan mulk batamom nobud bo'lganda yoki shikastlanganda – pul mablag'larini sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) bank hisob raqamiga sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan so'ng 2 (ikki) ish kuni ichida o'tkazib berish yo'li bilan; uchinchi shaxslarning mol-mulkiga zarar etkazilganda – pul mablag'larini jabrlangan uchinchi shaxs yoki sug'urta tovonini olishga haqli boshqa shaxsning bank hisob raqamiga sug'urta

hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan so'ng 2 (ikki) ish kuni ichida o'tkazib berish yo'li bilan. 56. Ushbu Qoidalarining 15-bandida ko'rsatilgan sug'urta hodisasi yuz berganida etkazilgan zararni qoplash uchun sug'urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan har bir to'lov, agar sug'urta summasini tiklash maqsadida sug'urta qildiruvchi tomonidan qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanmasa, sug'urta pulini (tovon limitini) aynan shunday summaga kamaytiradi. Agarda sug'urta puli tiklanganida, sug'urtalovchi tomonidan vaziyat va zarar miqdoridan kelib chiqib ko'paytiruvchi koeffitsientlar ishlatilishi mumkin.

1-bob bo'yicha xulosa:

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joyizki, haqiqatdan hamda bugungi kunda uy-joy sug'urtasi o'ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki fuqorolar tomonidan uy-joyga bo'lgan talab va ehtiyoj yil sayin ortib bormoqda. Shunday ekan uy-joy sug'urtasi bo'yicha sug'urta xizmatiturlarini ko'paytirish bilan bir qatorda uy-joy sug'urtasi faoliyatini amalga oshirishga doir qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish natijasida amaliyotga keng tadbqiq etish zarur hisoblanadi.

2-BOB. SUG'URTA BOZORINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAHLILI

2.1 Sug'urta bozorini rivojlanish tendensiyalari va uni tahlili

Oxirgi yillarda aholining sug'urtaga bo'lgan munosabatlari tobora yaxshilanib, fuqarolarning sug'urtalovchilarga bo'lgan ishonchi ortib, sug'urta ishiga jiddiy yondoshilmoqda. Respublikamizdagi sug'urta kompaniyalari xodimlari professionalliklari ham sezilarli darajada oshdi. O'zbekiston sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlari tahlili keltirilgan, 2017 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston sug'urtalovchilari tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlarining yalpi hajmi, 2008 yildagi ko'rsatkichning 7,8 baravaridan ortiqrog'ini tashkil etdi (1-jadval). Ta'kidlash joizki, sug'urta bozorining real o'sishi ixtiyoriy va majburiy sug'urta turlari hisobiga ta'minlandi.

Yalpi sug'urta mukofotlari hajmining yalpi milliy mahsulotdagi ulushi, sug'urta bozori rivojlanishini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich oxirgi yillarda 0,3% atrofidagi barqarorlikka erishdi, bu mahalliy sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta xizmatlariga bo'lgan to'lovga qobil talabning to'liq qondirilganligidan dalolat beradi.

1-jadval


O'zbekiston sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlari, mlrd.so'mda⁷

Yillar	Sug'urtalovchilar soni	Sug'urta mukofotlari	Sug'urta javobgarligi	Sug'urta qoplamalari
2008	33	88,1	35 715,6	15,5
2009	34	146,1	54 786,9	20,7
2010	33	171,4	69 139 ,7	27,0
2011	37	212,1	91 790, 6	44,5
2012	33	285,9	111 265,1	46,0

⁷ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining www.mf.uz – internet ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

2013	31	338,5	161 580,4	66,9
2014	31	439,1	240 519,7	74,6
2015	30	515,6	262 845,4	99,8
2016	26	692,5	325 861,6	130,4
2017	27	927,4	388877,2	269997,1

2017 yilning yakunlari bo'yicha O'zbekiston sug'urta bozorida 27 ta cyg'ypta kompaniyasi faoliyat ko'rsatib, ular tomonidan 2016 yilda 692,5 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2017 yilga kelib 927,4 mlrd.so'mni yoki 2016 yilgan nisbatan 234,9 mlrd.so'mga ko'p demakdir.




1-rasm. Sug'urta kompaniyalari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlari dinamikasi⁸(mlrd.so'm)

Shu bilan bir qatorda sug'urtalovchilar tomonidan 2016 yilda amalga oshirilgan sug'urta qoplamalari 130,4 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2017 yilda 269997,1 mlrd.so'mni tashkil qilib, 2016 yilga nisbatan

⁸O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

138,6 mlrdga ko‘p. Tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, sug‘urta bozorining rivojlanish tendensiyalari yillar mobaynida o‘tib bormoqda.



2-rasm. O‘zbekiston sug‘urta bozori bo‘yicha sug‘urtalovchilar tomonidan amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlarining dinamikasi⁹
(mlrd.so‘m)

Bu shundan dalolat beradiki, yildan-yilga sug‘urtalovchilar tomonidan ko‘rsatiladigan sug‘urta xizmatlari sifati yaxshilanib, aholini ehtiyojini qondiradigan sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatib kelayotganligidan dalolat beradi. Chunki kun sayin sug‘urta bozorida sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdagi raqobatbardoshlik oshib borayotganligidan dalolat beradi.

Shuningdek sug‘urta bozorining 2017 yil yakunlari bo‘yicha sug‘urta kompaniyalari kesimidagi ma’lumotlar ham o‘zgacha tus olgan bo‘lib, buni biz quyida keltirilgan 2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2-jadval

**2017 yil yakunlari bo'yicha sug'urta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlari
va amalga oshirilgan sug'urta to'lovlarini sug'urta kompaniyalari kesimida
ma'lumot¹⁰**

(mln. so'm)

t/r	Sug'urta tashkiloti nomlanishi	Sug'urta mukofotlari	O'zgarishi %da	Sug'urta to'lovlari	O'zgarishi %da
1	"O'zagrosug'urta" AJ	134 295,3	94,1	93 251,5	317,0
2	"O'zbekinvest" EIMSK	130 832,1	125,9	20 311,6	135,3
3	"Gross Insurance" MChJ	81 269,5	220,4	11 405,2	628,9
4	"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	80 344,1	106,7	23 895,7	137,2
5	"O'zbekinvest Hayot" MChJ	63 517,4	176,6	37 616,0	185,0
6	"Alfa Invest" MChJ ST	61 905,7	160,3	7 128,9	153,1
7	"Alskom" AJ SK	46 070,9	118,6	11 307,6	241,2
8	"New Life Insurance" MChJ	44 677,5	274,8	24 965,1	224,6
9	"Asia Inshurans" MChJ SK	35 247,6	108,6	4 848,0	95,2
10	"Euroasia Insurance" MChJ QK SK	30 608,1	196,8	759,5	119,4
11	"Temiryo'l Sug'urta" MChJ	28 063,9	132,4	1 862,3	148,5
12	"Kapital Sug'urta" AJ	24 801,5	93,9	6 349,6	109,5
13	"Ingo-Uzbekistan" SAJ	22 334,9	119,4	1 506,9	105,7
14	"Alfa Life" ShXJ ST	17 525,7	254,8	12 428,0	382,8
15	"Xalq Sug'urta" MChJ SK	14 848,0	114,0	1 161,8	52,9
16	"Universal-Sug'urta" AJ	14 539,4	120,6	1 097,2	90,4
17	"Asko-Vostok" MChJ	13 486,7	219,2	453,1	205,9
18	"Kafil sug'urta" MChJ	13 102,6	178,2	147,2	166,2
19	"Agros Hayot" MChJ	12 922,7	-	3 295,9	-
20	"Global Insurance Group" MChJ ST	10 197,2	189,9	127,7	128,0
21	"Mega Invest	9 423,6	130,8	438,5	101,4

¹⁰ ¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

	Insurance" MChJ SK				
22	"Tashkent Insurance Group" MChJ SK	8 464,0	180,1	1 149,5	649,1
23	"IShONCh" BSK MChJ	7 737,1	105,1	2 113,6	126,3
24	"Hamkor Sug'urta" MChJ	7 606,0	90,2	792,8	116,8
25	"Unipolis" MChJ	5 106,3	231,3	314,9	38,9
26	"Garant Insurance Group" MChJ	4 766,5	87,1	433,2	175,0
27	"DD-General Insurance" MChJ	3 756,8	102,3	835,6	116,9
	Jami:	927 451,4	133,9	269 997,1	207,0

2-jadvalda, 2017 yil yakunlari bo'yicha sug'urta kompaniyalari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlari va ularning o'zgarishi hamda amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari va ularning o'zgarishlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu jadvalga ko'ra 2017 yilda sug'urta bozorida 27 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan 4 tasi hayot sug'urta tarmog'i bo'yicha qolgan 23 tasi umumiy sug'urta tarmog'i bo'yicha sug'urta xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. 2017 yil yakunlari bo'yicha sug'urtalovchilar tomonidan jami yig'ilgan sug'urta mukofotlari 927451,4 mln.so'mni tashkil qilib, shundan 134 295,3 mln.so'mi "O'zagrosug'urta" AJ ga, 130 832,1 mln.so'mi "O'zbekinvest" EIMSK ga, 81 269,5 mln.so'mi "Gross Insurance" MChJ ga, 80 344,1 mlnmln.so'mni.so'mi "Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ ga, 63 517,4 mln.so'mi "O'zbekinvest Hayot" MChJ ga, 61 905,7mln.so'mi "Alfa Invest" MChJ STga, 46 070,9 mln.so'mi "Alskom" AJ SK ga, 44 677,5 mln.so'mi "New Life Insurance" MChJ ga, 35 247,6 mln.so'mi "Asia Inshurans" MChJ SK ga va 30 608,1 mln.so'mi "Euroasia Insurance" MChJ QK SK lariga to'g'ri kelmoqda. SHu bilan bir qatorda 2017 yil yakunlari bo'yicha jami amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari 269 997,1 mln.so'mni tashkil etib, shundan 93251,5mln.so'mi "O'zagrosug'urta" AJ ga, 20 311,6mln.so'mi "O'zbekinvest" EIMSK ga, 11 405,2mln.so'mi "Gross Insurance" MChJ ga, 23 895,7mln.so'mi "Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ ga, 37

616,0mln.so'mi "O'zbekinvest Hayot" MChJ ga, 7 128,9mln.so'mi "Alfa Invest" MChJ ST ga, 11 307,6mln.so'mi

"Alskom" AJ SK ga, 24 965,1mln.so'mi "New Life Insurance" MChJ ga, 4 848,0mln.so'mi "Asia Inshurans" MChJ SK ga, 759,5mln.so'mi "Euroasia Insurance" MChJ QK SK larining ulushlariga to'g'ri kelmoqda. Mazkur tahlil natijalaridan kelib chiqib shunday xulosaga kelish mumkinki, sug'urta bozorida yildan-yilga jami yig'ilgan sug'urta mukofotlari hamda amalga oshirilgan sug'urta to'lovlar hajmining ortib borishi shundan dalolat beradiki, sug'urtalovchilar tomonidan ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlarining sifati va ishonchlilik darajasi hamda kompaniyalar o'rtasida raqobatni oshib borayotganligi sezish mumkin.

SHu bilan bir qatorda viloyat hududlarida bozor infrastrukturasini yaxshilanishi ham sug'urta sohasiga bevosita o'zini ta'sirini o'tkazmoqda desak mubolag'a bo'lmayda. Bu holatni bizni 3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin.

3-jadval

2017 yil yakunlari bo'yicha viloyatlari kesimidagi yig'ilgan sug'urta mukofotlari bo'yicha ma'lumot¹¹

mln. so'm

T/r	Hududlar	2016y.	2017y.	O'zgarish %da
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	16 995,4	20 515,7	120,7
2	Andijon viloyati	29 418,2	39 617,9	134,7
3	Buxoro viloyati	28 007,1	35 255,4	125,9
4	Jizzax viloyati	15 363,9	18 929,3	123,2
5	Qashqadaryo viloyati	28 634,7	32 705,1	114,2
6	Navoiy viloyati	15 844,2	20 272,3	127,9

¹¹Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.

7	Namangan viloyati	25 340,5	28 974,0	114,3
8	Samarqand viloyati	29 736,5	38 886,0	130,8
9	Surxandaryo viloyati	19 306,6	20 010,5	103,6
10	Sirdaryo viloyati	10 567,3	10 107,7	95,7
11	Toshkent viloyati	51 940,5	69 155,3	133,1
12	Farg'ona viloyati	37 576,4	49 793,3	132,5
13	Xorazm viloyati	22 273,2	27 750,5	124,6
14	Toshkent sh.	361 590,1	515 478,5	142,6
Respublika bo'yichajami:		692 594,4	927 451,4	133,9

3-jadvalda, 2017 yil yakunlari bo'yicha sug'urtalovchilar tomonidan viloyatlar kesimida yig'ilgan sug'urta mukofotlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Unga Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 2016 yilda yig'ilgan sug'urta mukofotlari 16995,4 mln.so'mni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2017 yilda 20515,7 mln.so'mni yoki 3520,3 mln.so'mga ko'p demakdir. Yoki Buxoro viloyati bo'yicha 2016 yilda yig'ilgan sug'urta mukofotlari 28007,1 mln.so'mni, bu ko'rsatkich 2017 yilda 35255,4 mln.so'mni, Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2016 yilda yig'ilgan sug'urta mukofotlari 28634,7 mln.so'mni, ushbu holat 2017 yilda 32705,1 mln.so'mni, Namangan viloyati bo'yicha 2016 yilda yig'ilgan sug'urta mukofotlari 25340,5 mln.so'mni bu ko'rsatkich 2017 yilda 28974,0 mln.so'mni, Toshkent viloyati bo'yicha 2016 yilda yig'ilgan sug'urta mukofotlari 51940,5 mln.so'mni, 2017 yilda bu ko'rsatkich 69155,3 mln.so'mni, Farg'ona viloyati bo'yicha 2016 yilda yig'ilgan sug'urta mukofotlari 37576,4 mln.so'mni, 2017 yilda bu ko'rsatkich 49793,3 mln.so'mni, Xorazm viloyati bo'yicha 2016 yilda yig'ilgan sug'urta mukofotlari 22273,2 mln.so'mni ushbu ko'rsatkich 2017 yilda 27750,5 mln.so'mni va Toshkent shahri bo'yicha 2016 yilda yig'ilgan

sug'urta mukofotlari 361590,1 mln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2017 yil yakuniga ko'ra 515478,5 mln.so'mni tashkil etmoqda.

2.2 Uy-joy sug'urtasining hozirgi holati va uni tahlili

Ma'lumki, har qanday sug'urta turining qoidalarini, majburiy sug'urta turlaridan tashqari, sug'urta tashkiloti tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Sug'urta qoidalarini, shu jumladan, jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash qoidalarini ishlab chiqishda sug'urta tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'rsatilgan sug'urta qilishning standart shartlariga asoslanadi. Biroq, sug'urta amaliyotida jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash qoidalarini sug'urta tashkilotlarida turlicha mazmunda ishlab chiqiladi. SHu nuqtai nazardan, "Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ va "Asia Inshurans" MChJ sug'urta kompaniyalarining jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash qoidalarini misolida sug'urta shartnomasi shartlarini solishtirma tahlil etish maqsadga muvofiq.

Dastlab, "Sug'urta faoliyati klassifikatori"ning 8-klassi doirasida jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash ob'ektini tahlil qilamiz.

4-jadval

"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ va "Asia Inshurans" MChJ tashkilotlarining jismoniy shaxslar sug'urtasi bo'yicha ob'ektlarning solishtirma tahlili¹²

"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	"Asia Inshurans" MChJ
Jismoniy shaxslarning mulkga egalik qilish, undan foydalanish bilan bog'liq O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan mulkiy manfaatlari.	Mulkning nobud bo'lishi, shikastlanishi va yo'qolishi natijasida shartnoma foydasiga tuzilgan shaxsning mulkni tasarruf etishi, undan foydalanishi bilan bog'liq O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan mulkiy manfaatlari.

¹²"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ ba "Asia Inshurans" MChJ sug'urta tashkilotlarining sug'urta qoidalarini asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jismoniy shaxslarga xususiy mulk sifatida tegishli bo'lgan uy-joylar, jumladan ijaraga berilgan uy-joylar. ▪ Yashash uchun mo'ljallangan uy va inshootlar, ichki va tashqi pardozlari bilan birga xo'jalik binolari, uy-joylarning muhandislik uskunalari; ▪ jismoniy shaxsga tegishli bo'lgan boshqa mulklar (uy va yordamchi xo'jalikni yuritish uchun zarur bo'lgan jihozlar).	“Mulk” sifatida jismoniy shaxsga xususiy mulk yoki boshqa qonuniy asoslar bo'yicha tegishli bo'lgan quyidagi ko'chmas va ko'char mulklar tushuniladi: a) kvartira yoki uning ayrim xonalari, pardozi elementlari va boshqa asbob-uskunalar; b) uy-joy jihozlari; v) elektr maishiy uskunalari, murakkab audio-, video, elektron texnikalar; g) musiqa, o'lchov va optik jihozlari; d) sport va ovchilik jihozlari; e) boshqa mulklar.
---	---

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, "Asia Inshurans" MChJsug'urta kompaniyasining jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash shartlarida uydagi jihozlar aniq ko'rsatilgan.

Ushbu kompaniyaning jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash qoidalarida sug'urtalanuvchiga tegishli bo'lgan quyidagi mulklar tomonlarning kelishuviga binoan alohida bitim asosida sug'urta himoyasiga olinishi mumkin.:

a) qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan mahsulotlar;

b) rasmlar, kartinalar, haykallar, markalar kolleksiyasi, tangalar kolleksiyasi va boshqa san'at asarlari.

Ushbu shartlar "Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ sug'urta kompaniyasining jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash qoidalarida mavjud emas.

"Asia Inshurans" MChJ sug'urta kompaniyasining jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash qoidalarida quyidagilar sug'urtaga qabul qilinmasligi xususida qayd etib o'tilgan:

a) naqd pul shaklidagi so'mlar va chet el valyutalari;

b) aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar;

v) qo'lyozmalar, chizmalar va boshqa hujjatlar;

g) kompyuter va shunga o'xshash tizimlarning ma'lumotlarini saqlovchi uskunalar, jamladan, magnit lentalar, audio va videokassetalar, disklar, xotira bloklari va boshqalar;

e) portlovchi moddalar;

j) transport vositalari;

z) uy va qishloq xo'jalik hayvonlari;

i) avariya holatida va qurilish arafasida turgan uy-joylar;

k) oziq-ovqat mahsulotlari, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari.

To'g'ri, sug'urta tashkilotlarining birortasi portlovchi moddalarni sug'urtaga qabul qilmaydi. Ammo, jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalari "Sug'urta faoliyati klassifikatori"ning 3-klassi (er usti transport vositalarini sug'urtasi) bo'yicha sug'urtalanishi mumkin.

Endi, jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash qoidalarida asosida sug'urta javobgarligi hajmlarini solishtirma tahlil qilamiz.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJsug'urta kompaniyasining jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash qoidalarida sug'urtaga qabul qilinadigan risklarning ro'yxati to'liq keltirilgan.

Bundan tashqari, ushbu kompaniyaning sug'urta shartlari "Kapital sug'urta" sug'urta kompaniyasining shartlaridan shunisi bilan ajralib turadiki, unda har bir riskga atroflicha tavsif berilgan. Bu holat sug'urta qildiruvchilar uchun juda qulay hisoblanadi.

"Asia Inshurans" MChJ sug'urta kompaniyasining qoidalariga binoan jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash faqat yong'in, yashin urishi va gaz portlashi

doirasida amalga oshiriladi. Ammo, alohida bitimga muvofiq sug'urta shartnomasiga quyidagilar natijasida mulkning nobud bo'lishi va zararlanishi bilan bog'liq sug'urta javobgarligi kiritilishi mumkin:

5-jadval

"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ va "Asia Inshurans" MChJ sug'urta kompaniyalarining jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash qoidalarida risklar bo'yicha sug'urta javobgarligi hajmining solishtirma tahlili¹³

"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ sug'urta kompaniyasi	"Asia Inshurans" MChJ sug'urta kompaniyasi
1. Ichki santexnika tizimining ishdan chiqishi. Ushbu risk bo'yicha sug'urtalovchi javobgarligi quyidagilarga taalluqli bo'ladi: suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik tizimi trubalarining muzlashi yoki yorilishidan ko'riladigan zararlar. 2. Qushni bino va xonadonlardan suv oqishi natijasida etkaziladigan zararlar. 3. yong'in. 4. Portlash. 5. Zilzila. 6. Suv toshqini. 7. Bo'ron (tezligi 15m/s dan yuqori bo'lgan kuchli shamol. SHamolning tezligi 15,3 m/s dan 29 m/s gacha bo'lsa, bu holat bo'ron deyiladi. Agar shamolning tezligi 29 m/s dan yuqori bo'lsa uragan deyiladi). Sug'urtalovchi	1. Yong'in. 2. Yashin urishi. 3. Maishiy ehtiyojlar uchun ishlatiladigan gazning portlashi, buning natijasida yong'in paydo bo'lmagan taqdirda ham. Agar bu holat sug'urta polisida alohida ko'rsatilgan bo'lsa, u holda sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchining sug'urta hodisasi sodir bo'lganda uni oldini olish va bartaraf etish hamda sug'urta hodisasi sodir bo'lgan hududni tozalash va binolarni buzish bo'yicha xarajatlarni ham qoplaydi. Tomonlar o'zaro kelishgan holda alohida kelishuvga muvofiq mulkning quyidagilar sodir bo'lishi natijasida nobud bo'lishi va shikastlanishidan ko'rilgan zararlarni ham qoplashi

¹³ Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ ba "Asia Inshurans" MChJ sug'urta tashkilotlarining sug'urta qoidalarida asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

sugʻurtalangan mulkga tegishli sugʻurta qoplamasini toʻlaydi, qachonki, ushbu mulk bevosita shamol taʼsirida yoki boʻron tufayli bino, inshootlar bir qismi, daraxt yoki boshqa predmetlarning qoʻlashi natijasida nobud boʻlgan yoki shikastlangan boʻlsa. 8. Doʻl. 9. Ugʻirlik. 10. Bosqinchilik. 11. Uchinchi shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari. 12. Er koʻchishi. 13. Sel. 14. YAshin urishi. 15. Kuchli jala. 16.Er osti suvlarining koʻtarilishi; 17. Erning zaxlashi; 18. Uchuvchi moslamalarning qulashi. 19. Ushbu joy uchun odatiy boʻlmagan yomgʻirning uzoq vaqt yogʻishi yoki kuchli qor yogʻishi.	mumkin: a) zilzila, boʻron, uragan, jala, suv toshqini, vulqon otilishi va boshqa stixiyali ofatlar; b) isitish qozonlari, gaz oʻtkazgichlar, siqilgan gaz yoki havo orqali harakatga keladigan mashina va apparatlar, uskunalalar.
---	--

a) zilzila, boʻron, uragan, jala, suv toshqini, vulqon otilishi va boshqa stixiyali ofatlar;

b) issiqlik qozonlari, gaz oʻtkazgichlar, siqilgan gaz va havo orqali ishlaydigan mashina va apparatlar.

Taʼkidlash lozimki, odatda, jismoniy shaxslar mulkini sugʻurtalash qoidalarida shunday risklar roʻyxati keltiriladiki, ular boʻyicha sugʻurtalovchi

javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Buni sug'urta tilida umumiy istisnalar deyiladi. Ushbu tushunchaning muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib, uni yuqorida ko'rsatilgan "Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ va "Asia Inshurans" MChJsug'urta kompaniyalarining jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash qoidalari misolida solishtirma tahlil qilamiz.

6-jadval

“Kafolat sug'urta kompaniyasi” AJ va "Asia Inshurans" MChJ sug'urta kompaniyalarining jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash qoidalari asosida istisnolarning solishtirma tahlili¹⁴

Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ sug'urta kompaniyasi	"Asia Inshurans" MChJ
Agar hodisa quyidagilar natijasida sodir bo'lgan bo'lsa, sug'urta hodisasi hisoblanmaydi: - sug'urta ob'ektidan tashqarida joylashgan mulklar, tashqi elektr simlari, elektr simi tortilgan stolba, shuningdek turli to'siqlarga etkazilgan zararlar; -sug'urta qildiruvchi yoki naf oluvchining qasddan qilingan hatti-harakatlari; -sug'urta qildiruvchi yoki uning oila a'zolarining giyohvand modda yoki spirtli ichimlik ta'siridagi holatda mulkka etkazilgan zararlar; -mulkning o'z-o'zidan yonib ketishi,	Quyidagilar natijasida sodir bo'lgan hodisalar sug'urta hodisalari sifatida tan olinmaydi: -har xil darajadagi urush harakatlari, fuqarolik urushlari va uning oqibatlari, xalq qo'zg'olonlari, ish tashlashlar, mulklarni davlat ixtiyoriga musodara qilish, harbiy yoki fuqarolik hokimiyatlarining topshirig'iga asosan mulklarga shikast etkazilishi yoki ularni yo'q qilinishi; -har qanday shakldagi yadro energiyasining ta'siri; -sug'urta qildiruvchi, uni oila a'zolarining atayin hatti-harakati; -sug'urtalangan mulkning o'z-o'zidan

¹⁴Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ ba "Asia Inshurans" MChJ sug'urta tashkilotlarining sug'urta qoidalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

chirishi yoki boshqacha shakldagi tabiiy eskirishi; -uchinchi shaxslarning qasddan qilingan g'ayri qonuniy xatti-harakatlari natijasida mulk o'g'irlangan, nobud bo'lgan yoki shikastlangan bo'lsa, bu haqda mutasaddi tashkilotlarga xabar berilmagan bo'lsa yoki ular tomonidan ushbu vaqea tasdiqlanmagan bo'lsa; -parazit, termit va boshqa zararkunandalar ta'sirida, yashirin defektlar, tabiiy eskirishlar va atmosfera namgarchiligi natijasida mulkga etkazilgan zararlar; -oynaning sinishi yoki boshqa o'tkir tig'li jismlar ta'siri natijasida mulkga etkazilgan zararlar; -urush va harbiy harakatlar (urush e'lon qilingan yoki qilinmaganidan qat'iy nazar), inqilob, qo'zg'olon, ish tashlashlar, hokimiyatning zo'ravonlik bilan egallanishi, o'zaro til biriktirish, terrorchilik harakatlari, musodara qilish, davlat hokimiyati organlarining ko'rsatmasiga binoan bino yoki uy-joyning buzilishi yoxud zararlanishi, yadro reaksiyasi, yadro yoki radiaktiv nurlanish natijasida mulkga etkazilgan	yonib ketishi, chirishi va boshqa tabiiy emirilishlar; -inshootlar yoki ularning bir qismini qo'lab tushishi; -mulk huquqi asosida sug'urta qildiruvchiga tegishli bo'lmagan (sug'urta polisida ko'rsatilgan holatlardan tashqari) mulkning shikastlanishi yoki nobud bo'lishi; -sug'urta qildiruvchining uchinchi shaxslar bilan shartnoma munosabatlaridan kelib chiqadigan majburiyatlar; -sug'urta qildiruvchi (manfaatdor shaxs)ning O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari, lavozim va idoraviy yo'riqnomalar, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari, mulkdan foydalanish bo'yicha ko'rsatma va muddatlariga rioya etmaslik bilan bog'liq faoliyati.
--	--

zararlar; -sug'urta shartnomasida qayd etilmagan boshqa barcha holatlar.	
--	--

Sug'urta tashkilotlarining jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash bo'yicha umumiy istisnolar ro'yxati solishtirma tahlil etish natijalari ikkala sug'urtalovchida ham istisnolar deyarli farq qilmasligini ko'rsatdi.

Jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash shartlariga sug'urta summasi miqdorlarini aniqlash tartibi ham kiradi. SHu jihatdan, bizning fikrimizcha, Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ va "Asia Inshurans" MChJ sug'urta kompaniyalarida jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalashda sug'urta summasi miqdorlarini aniqlash tartibini solishtirma tahlil etish maqsadga muvofiq.

7-jadval

“Kafolat sug'urta kompaniyasi” AJ va “Asia Inshurans” MChJ sug'urta kompaniyalarida jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalashda sug'urta summasi miqdorlarini aniqlash tartibining solishtirma tahlili¹⁵

“Kafolat sug'urta kompaniyasi” AJ sug'urta kompaniyasi	"Asia Inshurans" MChJsug'urta kompaniyasi
Sug'urta summasi miqdori sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchining o'zaro kelishuviga asosan aniqlanadi va sug'urta shartnomasida o'z aksini topadi. Mulzni sug'urtalashda, agar shartnomada boshqa shartlar ko'rsatilmagan bo'lsa, sug'urta summasining miqdori mulk joylashgan	Sug'urta summasi shartnomaga muvofiq belgilanadi. Mulzni sug'urtalashda tegishli shartnoma tuzilayotgan paytda sug'urta summasi mulkning haqiqiy qiymatidan oshib ketmasligi lozim. Agar mulzni sug'urtalash bo'yicha shartnomada sug'urta summasi uning haqiqiy qiymatidan past darajada


¹⁵ Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ ba "Asia Inshurans" MChJ sug'urta tashkilotlarining sug'urta qoidolari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

joyda va shartnoma tuzilayotgan vaqtda uning haqiqiy qiymatidan oshib ketmasligi kerak. Sug'urta qiymati deganda sug'urta shartnomasi tuzilayotgan paytda taraflarning kelishuvchiga asosan aniqlanadigan sug'urta manfaati bilan bog'liq mulkning qiymati tushuniladi. Bino va inshootning qiymati ularni qurish yoki sotib olishga sarflangan xarajatlardan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Uy-joy binosining pardoqlash bilan bog'liq qiymati ushbu binoni pardoqlash uchun sarflangan xarajatlar asosida hisoblanadi. Qurilish (pardoqlash) xarajatlari o'z ichiga qurilish (pardoqlash) materiallarini sotib olish va bajarilgan ishlar qiymatini oladi. Inshootlarning qiymatini baholash, tomonlarning o'zaro kelishuvida boshqacha shartlar o'z ifodasini ko'zda tutilmagan bo'lsa, qurilish materiallari va bajarilgan ishlar hajmining amaldagi narzlari asosida amalga oshiriladi. Namunaviy uy-joylar va inshootlar qiymati sug'urtalovchi tomonidan	tuzilgan bo'lsa, u holda sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urta qildiruvchiga zarar miqdori sug'urta qiymatining sug'urta summasiga mos darajadagi qismi qoplanadi. Sug'urta summasi har bir ob'ekt va risk bo'yicha alohida belgilanishi mumkin. Sug'urta summasi so'mda va AQSH dollarida belgilanishi mumkin. Bunday holatda hisob-kitoblar Markaziy bank kursi bo'yicha amalga oshiriladi. Sug'urta shartnomasida taraflar franshiza qo'llashlari mumkin. SHartli franshizada sug'urtalovchi zarar miqdori franshiza miqdoridan oshmasa zararni qoplamaslik huquqiga ega bo'ladi. Agar zarar miqdori belgilangan franshiza miqdorida oshib ketsa, u holda sug'urtalovchi zarar miqdorini to'liq to'laydi. SHartsiz franshizada esa sug'urtalovchi belgilangan foiz doirasida zararni qoplamaslikka haqli. Sug'urtalovchi tomonidan qoplanishi lozim bo'lgan zararni kamaytirish bo'yicha sug'urta qildiruvchining xarajatlari, agar bunday xarajatlar zarur bo'lgan bo'lsa yoki sug'urtalovchining
---	---

umumiy joy hajmining 1,0 kv.metr bozor narxi asosida hisoblanadi. Mulkning sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan qiymati, keyinchalik, asossiz o'zgartirilishi mumkin emas, agar sug'urtalovchi mulkni shartnoma tuzishdan oldin baholash bo'yicha huquqidan foydalanmagan va u mulk qiymati bo'yicha atayin adashtirilgan bo'lsa. Zaruriyat bo'lganda taraflarning kelishuviga muvofiq sug'urta davri mobaynida mulkning sug'urta qiymati qayta baholanishi mumkin. Bunday holatda mos ravishda sug'urta summasi ham qayta ko'rib chiqiladi va to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofoti qayta hisob-kitob qilinadi.	topshirig'ini bajarish bo'yicha amalga oshirilgan bo'lsa, sug'urtalovchi tomonidan qoplanadi. Bunday xarajatlar sug'urta qiymatining sug'urta summasiga nisbatan foiz hisobida to'lanadi.
---	--

Amalga oshirilgan tahlillar, "Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ sug'urta kompaniyasi va "Asia Inshurans" MChJ sug'urta kompaniyasi tomonidan jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalashda belgilanadigan sug'urta summasi miqdorlarini aniqlash uslublari bir-biridan farq qilishini ko'rsatdi. Masalan, "Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ sug'urta kompaniyasining jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash shartlarida namunaviy uy-joy qiymatini hisoblashda sug'urtalovchi umumiy qiymatning 1,0 kv.metri bozor qiymatidan kelib chiqishi ma'lum bo'ldi. Ammo, "Asia Inshurans" MChJ sug'urta kompaniyasi jismoniy shaxslar mulkini sug'urtasini ham so'mda, ham AQSH dollarida amalga oshirishi ma'lum bo'ldi. Bunday holatda hisob-kitoblar Markaziy bank kursi bo'yicha so'mda amalga

oshiriladi. Jismoniy shaxslar mulki sugʻurtasining obʻekti boʻlib Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid boʻlmagan mulkka egalik qilish, ishlatish va boshqarish yuzasidan vujudga kelgan majburiyatlarning mulkiy manfaatlari hisoblanadi. Bu erda sugʻurtalanuvchilar muomalaga layoqatli boʻlgan fuqarolar boʻlib, sugʻurta shartnomasidagi oʻzining yoki uchinchi tomonning manfaatlarini sugʻurtalovchi tomon. Sugʻurta shartnomasiga binoan sugʻurtalanuvchi sugʻurtalovchiga sugʻurta hodisasi yuz berganda zararni qoplab berish majburiyatini olganligi uchun sugʻurta mukofotini toʻlab berishi kerak. Jismoniy shaxslar mulkini sugʻurtalash mulk sugʻurtasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Soʻngi oʻn yil mobaynida Oʻzbekiston sugʻurta bozori boʻyicha yigʻilgan umumiy sugʻurta mukofotlari hajmida mulk sugʻurtasining ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Bunday holatni sugʻurta kompaniyalari misolida ham koʻrish mumkin. Xususan, 2017 yil yakunlari boʻyicha "Asia Inshurans" MChJsugʻurta kompaniyasi tomonidan toʻplangan jami 35 247,6 mln.soʻm miqdorida yigʻilgan sugʻurta mukofotlarining 35,0 foizi mulk sugʻurtasiga toʻgʻri keladi. Quyidagi diagrammada ushbu koʻrsatkichniyorqin ifodasini koʻrishimiz mumkin.




3-rasm. “Asia Inshurans” MChJ sugʻurta kompaniyasi boʻyicha kelib tushgan sugʻurta mukofotlari tarkibida mulk sugʻurtasining salmogʻi (foizda)¹⁶

¹⁶“Asia Inshurans” MChJ sugʻurta kompaniyasining 2017 yil hisobot materiallari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

3-rasmda keltirilgan ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2017 yilda "Asia Inshurans" MChJ sug'urta kompaniyasi bo'yicha kelib tushgan jami sug'urta mukofotlari tarkibida mulk sug'urtasining ulushi 35,0 foizni tashkil etgan. Agar buni raqamlarda ifodalaydigan bo'lsak, 12336,6 mln.so'm miqdorida mulk sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlari kelib tushganligini ko'ramiz.

Mulk sug'urtasi bo'yicha kelib tushgan umumiy sug'urta mukofotlarining 72,3 foizi garovga qo'yilgan mulk va yuridik shaxslar mulkini sug'urtalashga, 6,9 foizi qurilish-montaj risklarini sug'urtalashga, 20,8 foizi esa jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalashga to'g'ri keladi. Bayon etilganlarni quyidagi rasmda tasvirlaydigan bo'lsak, mulk sug'urtasi bo'yicha kelib tushgan jami sug'urta mukofotlari tarkibida jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash unchalik katta ulushga ega emasligi ma'lum bo'ladi.



4-rasm. 2017 yilda "Asia Inshurans" MChJ sug'urta kompaniyasida mulk sug'urtasining tarkibi¹⁷

¹⁷ "Asia Inshurans" MChJ sug'urta kompaniyasining 2017 yil hisobot materiallari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2017 yilda “Asia Inshurans” MChJ sug‘urta kompaniyasi bo‘yicha mulk sug‘urtasidan kelib tushgan jami sug‘urta mukofotlari tarkibida garovga qo‘yilgan mulkni sug‘urtasi katta ulushga ega. Ya’ni, garovga qo‘yilgan mulkni sug‘urtasi bo‘yicha kelib tushgan sug‘urta mukofotlari jami sug‘urta mukofotlarining 61,3 foizini tashkil etgan. Ushbu sug‘urta mukofotlari tarkibida jismoniy shaxslarning garovga qo‘yilgan mulkini sug‘urtasi bo‘yicha kelib tushgan sug‘urta mukofotlari ham o‘rin olgan. Biroq, aniq statistik ma’lumotlarning etarli emasligi bu borada aniq xulosa chiqarish imkoniyatini bermaydi.

Rasmdagi ma’lumotlarning guvohlik berishicha, 2013 yilda kompaniya miqyosida kelib tushgan mulk sug‘urtasi bo‘yicha jami sug‘urta mukofotlarining 20,8 foizi jismoniy shaxslar mulkini sug‘urtalash turiga to‘g‘ri keladi.

2-bob bo‘yicha xulosa

Xulosa qilib ta’kidlash mumkinki, solishtirma tahlil natijalari “Kafolat sug‘urta kompaniyasi” AJ sug‘urta kompaniyasining jismoniy shaxslar mulkini sug‘urtalash shartlari "Asia Inshurans" MChJsug‘urta kompaniyasining tegishli sug‘urta shartlaridan ancha farq qiladi. YA’ni, “Kafolat” davlat-aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasining jismoniy shaxslar mulkini sug‘urtalash bo‘yicha shartlari keng va tushunarli tarzda bayon etilgan.

Bu o‘z navbatida, sug‘urta qildiruvchilar uchun qulay hisoblanadi.

3-BOB. O‘ZBEKISTONDA UY - JOY SUG‘URTASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1 Uy-joyni sug‘urtalashning xorij tajribasi va undan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlari

Jismoniy shaxslar mulkini sug‘urtalashning xalqaro amaliyotida quyidagi sabablarga ko‘ra yuzaga kelgan zararlar qoplanadi:

1. Yong‘in, yashin urishi, portlash, zilzila, er yuza qismining cho‘kishi. Ushbu bo‘limda yong‘in sodir bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘lgan risk hisoblanadi, ammo ba‘zan yashin urishi va portlashlar soni ko‘payadi. Masalan, so‘ngi yillarda maishiy maqsadlarda foydalaniladigan gazning chiqishi natijasida portlash holatlarining ro‘y berishi kuzatilayapti. Zilzila sodir bo‘lishi oqibatida yuzaga kelgan zararlar, faqat, seysmik jihatdan xavfli bo‘lgan joylardagi sug‘urtalangan ob‘ektlarni loyihalashtirish, qurish va foydalanishda xududning seysmologik holati qanchalik hisobga olinganligi sug‘urta qildiruvchi tomonidan isbotlab berilgan taqdirdagina sug‘urta qoplamasi to‘lab beriladi. Sug‘urta shartnomasini tuzishda sug‘urta qildiruvchi sug‘urtalovchi vakiliga sug‘urtaga qabul qilinayotgan ko‘chmas mulk va uni qanday materiallardan qurilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etadi. Agar, uy-joyning yong‘in sodir bo‘lishiga olib keluvchi materillardan foydalangan holda qurilganligi ma’lum bo‘lsa, sug‘urtalovchi tarif stavkasini oshiradi.

2. Aviahalokatlar yoki havo kemasidan qandaydir predmetlarning uy-joy ustiga qulab tushishi. Ushbu risk sug‘urtalovchi tomonidan aeroport xududiga yaqin bo‘lgan joylardagi uy-joylarni sug‘urtaga qabul qilishda sug‘urta polisi shartlariga kiritiladi.

3. Daraxt yoki uni qismlarining qulab tushishi.

4. Bo‘ron, dovul, jala, do‘l, er osti suvlarining harakati, sel va suv toshqini. Aksariyat xududlar sel va suv toshqini natijasida zararlanadi. SHuningdek, sug‘urtalangan bino ichiga yomg‘ir, qor, do‘lning ochiq qolgan eshik yoki deraza orqali kirishi natijasida ko‘rilgan zararlar sug‘urtalovchi tomonidan qoplab

berilmaydi. Eshik yoki derazaning kuchli shamol, dovul yuz berishi tufayli ochilib ketishi oqibatida bino ichiga qor, yomg'ir, do'lning kirishi natijasida etkazilgan zararlar bundan mustasno.

5. Issiqlik, kanalizatsiya va suv ta'minoti tizimlaridagi avariylar. Jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash polisiga ushbu riskning kiritilishi ushbu tizimlarning buzilishi, yorilishi, ishdan chiqishi natijasida mulkka etkazilgan zararni qoplash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, issiqlik, kanalizatsiya, suv ta'minoti tizimlaridagi avariylar natijasida binoning pardozi qismiga etkazilgan zararlar ham qoplanadi. Biroq, sug'urtalangan uy-joyda hech kim yashamayotgan bo'lsa, yuqorida qayd etilgan riskning sodir bo'lishi oqibatida etkazilgan zararlar qoplanmaydi.

6. Moyli isitish qurilmalari va priborlaridan moyning chiqishi. Sug'urta qildiruvchi ariza-anketani to'ldirishda sug'urtaga qabul qilinayotgan ob'ekt to'g'risidagi ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun javobgar hisoblanadi. Bunda u isitish moslamalarida ishlatilayotgan moyning xususiyatlari to'g'risida ma'lumot taqdim etishi lozim.

7. To'qnashish. Uy-joylarni sug'urtalash polisiga ushbu riskning kiritilishi sug'urta qildiruvchi mulkiga er usti transport vositalarining tuqnashishi, qishloq joylarda esa yirik shoxli qoramol va otlar tomonidan uy-joylarga etkazilishi ehtimoli bo'lgan risklardan himoyalaydi.

8. Bosqinchilik yoki vandalizm. Sug'urta tashkilotlari ushbu riskni sug'urta polisidan olib tashlaydi yoki franshiza belgilaydi. SHuningdek, sug'urtalangan ob'ektda hech kim istiqomat qilmasa, u holda sug'urta qoplamasi miqdori kamayadi.

9. Uy-joy oynasining tasodifan sinishi. Bunday holatda sug'urtalovchi derazaning singan oynasi, xonalararo eshiklardagi oynalarning sinishi bilan bog'liq zararlarni qoplab beradi. Agar, sug'urta qilingan uyda bir oydan ortiq davrda hech kim yashamagan bo'lsa, sug'urta qoplamasi miqdori kamaytirilishi mumkin.

10. Issiqlik, sovuq suv va kanalizatsiya hamda uy-joylar o'rtasidagi elektr kabel simlarining tasodifan shikastlanishi.

11. Televizion va radio antennalarining buzilishi. Bunday holatda bevosita uy-joyga etkazilgan zarar qoplab beriladi. Televizion va radio antennalariga etkazilgan zarar uy-joy sug'urtasi polisi asosida qoplab beriladi.

12. Mulk egasining javobgarligi. Ushbu riskning e'tiborli jihati shundaki, uy-joy egasining uchinchi shaxslarga zarar etkazish bo'yicha javobgarligi sug'urta polisi tarkibiga kiritiladi. Agar, sug'urta hodisasi uy egasi xududida sodir bo'lib, uchinchi shaxsga ziyon etsa, u holda sug'urta qildiruvchi jabrlanuvchiga katta miqdorda zararining o'rnini qoplashi lozim bo'ladi.

13. Uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari.

14. Sug'urta hodisasi sodir bo'lgandan keyin uni tiklash bo'yicha arxitektorlar, avariya komissarlari va boshqalarning ish haqini to'lash bilan bog'liq xarajatlar. Bunga sud xarajatlari ham kiritiladi. Shuningdek, sug'urta hodisasi sodir bo'lgan xududni tozalash xarajatlari ham sug'urtalovchi tomonidan qoplab berilishi mumkin. Mulkka xavf solish holatlari yuzaga kelganda uni bo'laklarga ajratgan holda bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish xarajatlari ham sug'urtalovchi tomonidan qoplab beriladi.

Uy-joylarni sug'urtalash polisi, aksariyat holatlarda, bir qator risklarni hisobga olmaydi. Sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydigan bunday risklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- uy egasi yashamayotgan uy-joylarning muzlashi natijasida ko'rilgan zararlar, bunda sug'urta qildiruvchi tomonidan ushbu riskni oldini olish bo'yicha choralar ko'rilgan holatlar mustasno;

- suv basseynlari, prichallarga qor yoki muzning og'irligi natijasida etkazilgan zararlar;

- binoning bir qismida qurilish ishlari tugallanmagan holatda qurilish materiallarining ug'irlanishi;

- termitlar ta'siri natijasida ko'rilgan zararlar;

- hayvonlar va zararkunandalar ta'sirida ko'rilgan zararlar;

-harbiy harakatlar, terrorizm natijasida ko‘rilgan zararlar.

Agar ushbu holatlar sug‘urta shartnomasining shartlarida alohida ko‘rsatilmagan bo‘lsa, portlovchi moddalarning portlashi natijasida ko‘rilgan zararlar qoplanmaydi. Portlovchi modda deganda portlash ishlarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan va o‘zidan katta miqdorda issiqlik va gaz ajratish xususiyatiga hamda qisqa muddatda kimyoviy reaksiyaga kiradigan kimyoviy birikma tushuniladi.

Sug‘urta polisiga u yoki bu risklarni kiritish yoxud kiritmaslikning sababi sug‘urta faoliyatini tartibga solish bo‘yicha davlat organlari qonun-qoidolari, xududlarning iqlim, geografik va seysmologik shart-sharoitlariga bog‘liq.

Odatda, sug‘urta shartnomasini tuzishdan oldin bino, uy-joy, inshootni sug‘urtalash bo‘yicha takliflarni o‘z ichiga olgan ariza to‘ldiriladi. Arizada sug‘urtalanayotgan ob‘ektni tavsiflovchi qator qoidalar mavjud bo‘ladi. Barcha bandlar bo‘yicha sug‘urta qildiruvchi aniq va ishonchli ma‘lumotlarni sug‘urtalovchiga taqdim etishi shart. Arizaning asosiy tarkibiy qismi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: uy-joyning plani, tavsifi va bahosi. Arizani sug‘urta qildiruvchi imzolaydi va ma‘lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgar hisoblanadi. Moboda, sug‘urtalovchi sug‘urtaga qabul qilingan mulk bo‘yicha sug‘urta riskini baholashda katta ahamiyatga ega bo‘lgan holat bo‘yicha noto‘g‘ri ma‘lumot bergan bo‘lsa, u holatda sug‘urtalovchi zararni qoplashdan ozod etiladi.

Yirik ob‘ektlarni sug‘urtalashda, sug‘urtalovchi sug‘urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan arizadagi ma‘lumotlar bilan cheklanib qolmaydi, balki ushbu ob‘ektni chuqur o‘rganish uchun o‘zining vakilini jo‘natadi. Sug‘urtalash jaaryonida mulkning qiymati va uni tiklash qiymati muhim ahamiyatga ega. Agar, uzoq vaqt davomida mulkning o‘rtacha qiymati kam o‘zgargan bo‘lsa, sug‘urta summasini aniqlash unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi. Inflyasiya darajasi yuqori sur‘atlar bilan o‘sayotgan sharoitda mulkning qiymatini aniqlash murakkab hisoblanadi. Inflyasiyani hisobga olishda sug‘urta summasini qayta ko‘rib chiqishgacha bo‘lgan vaqt baholanadi. Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lgandan keyin

uni tiklash qiymati vaqti ham hisobga olinadi. Eng qulay variantlardan biri tiklashning butun davri mobaynida umumiy smeta qiymatining 50 foizi miqdorida qo'shimcha to'lov amalga oshirilishi hisoblanadi.

Uy-joyni sug'urtaga qabul qilishda uy-joyning qurilish xususiyatlari bilan bir qatorda yong'inning qo'shni binolardan o'tish ehtimolini ham hisobga oladilar. Bundan tashqari, uy egasining shaxsi, egallab turgan lavozimi bilan bog'liq riskni ham e'tiborga oladi. Bunday sub'ektiv omilni inobatga olmasdan iloj yo'q. Tajribaning ko'rsatishicha, uy-joylarning yoqib yuborilishi shaxs omiliga ham bog'liq. SHu bois, uy-joyni sug'urtaga qabul qilishda sug'urta qildiruvchining moliyaviy holatiga, uning o'z mulkiga bo'lgan munosabatiga aniqlik kiritiladi.

Sug'urta qildiruvchi, shartnoma tuzar ekan, zararni qoplashda o'zi ham ishtirok etishga haqlidir. Bu sug'urta tilida franshiza deyiladi. Franshiza miqdori va umumiy sug'urta summasiga qarab sug'urta tashkiloti sug'urta qildiruvchi to'laydigan sug'urta mukofotlariga chegirma joriy etishi mumkin.

Har bir inshootni baholash bo'yicha ma'lumotlar sug'urtaviy baholash varag'iga yozib boriladi. Bunda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- inshootdan qaysi maqsadlarda foydalanish (yashash, omborxona, saroy va boshqalar);
- inshootning qaysi yili qurilganligi;
- fudament, devor va tom qismi qaysi materiallardan qilinganligi;
- haqiqiy hisob-kitob bo'yicha inshoot o'lchovi;
- joriy holatdagi inshootning bahosi;
- inshootning eskirish summasi;
- eskirish summasi chegirilgandan keyingi inshootning bahosi (sug'urta summasi).

Inshootni baholash ko'rsatkichlarini tanlashda ushbu joyda qo'llaniladigan ko'rsatmalar va me'yorlarga tayaniladi. Agar, inshoot o'zining konstruktiv xususiyatlari bilan tipovoy shaklidagi holatidan farq qilsa u holda ushbu ob'ektga nisbatan ustama yoki chegirmalar qo'llaniladi.

Sugʻurta shartnomasi har qanday muddatga tuzilishi mumkin. Biroq, shartnoma asosan bir yil muddatga tuziladi. Sugʻurta shartnomasi muddati tugashiga oz qolgan davrda sugʻurtalovchi sugʻurta qildiruvchiga amaldagi shartnomani uzaytirish yoki qaytadan tuzish boʻyicha taklif taqdim etadi. Amaldagi tartibga koʻra, sugʻurtalovchi sugʻurta qildiruvchiga sugʻurta muddatini kupaytirish yoki yangidan shartnoma tuzishga imtiyozli davr, yaʼni muddat tugagan boʻlishiga qaramay, ilgari tuzilgan shartnoma amalda boʻlib turadi. Yuridik jihatdan ushbu imtiyozli davrda sugʻurtalovchi sugʻurta qildiruvchiga etkazilgan zararni qoplamasligi kerak, biroq reklama nuqtai nazaridan sugʻurtalovchi bu zararni qoplab beradi. Qoidaga koʻra, eski nurash arafasida turgan inshootlar va foydalanilmayotgan, olis hamda kimsasiz joyda joylashgan inshootlar sugʻurta himoyasiga olinmaydi.

Uy-joyga etkazilgan zarar va sugʻurta qoplamasi miqdorini aniqlash ketma-ketligi quyidagi bosqichlardan iborat:

- ❖ sugʻurta shartnomasi amalda boʻlgan davrda sodir boʻlgan risk natijasida mulkning zararlanganlik va nobud boʻlganlik faktini aniqlash;
- ❖ etkazilgan zararining sabablari va holatlarini aniqlash, buni sugʻurta hodisasi yoki sugʻurta hodisasi emasligi toʻgʻrisida qaror qabul qilish;
- ❖ zararlangan obʼektlarni sugʻurtalangan obʼektlar jumlasiga kirishi masalasiga aniqlik kiritish;
- ❖ zarar summasi va sugʻurta qoplamasini hisob-kitob qilish.

Nobud boʻlgan mulkning sugʻurta bahosi boʻyicha qiymati, shikastlangan mulkning qadrsizlanishini hisobga olgan qiymati, mulkni qutqarish va uni tartibga keltirish boʻyicha ishlar qiymati sugʻurtalovchining zararlari hisoblanadi. Zarar summasidan mulkning zararlangan yoki zararlanmagan, biroq qurilish materiali sifatida ishlatish mumkin boʻlgan qismi (gʻishtlar, doskalar va boshqalar) chegirib tashlanadi.

Inshootlar nobud boʻlganda yoki shikastlanganda sugʻurta tashkiloti xodimi sugʻurta hodisasi sodir boʻlgan paytda sugʻurta qildiruvchida inshootning mavjudligi va tarkibini tekshiradi. Sugʻurta baholash varaqalariga barcha

inshootlar yozuv shaklida kiritilganligiga aniqlik kiritiladi, bino va inshootlarning qaysi maqsadlarda foydalanishi bo'yicha ma'lumotlar to'g'rimi, degan savollarga javob olinadi. Sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng yangi imorat qurilgan bo'lsa, uni ham bahosi aniqlanishi lozim.

Dalolatnomadagi hamda sug'urta baholovchi varaqalaridagi ma'lumotlar imoratlarning nobud bo'lishida ham, shikastlanishida ham zararlarni aniqlash uchun asos bo'ladi. SHikastlangan imoratlarni ta'mirlash xarajatlari bajariladigan ish turiga belgilangan narxlar asosida hisoblanadi.

3.2 Uy-joy sug'urtasi va uni rivojlantirish istiqbollari

Hozirgi sharoitda sug'urta sohasi O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning barqarorligi va aholining ijtimoiy muhofazasini ta'minlashda sug'urtaning beqiyos rolini e'tiborga olib 2007 yil 10 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini isloh qilish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 618-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror respublika sug'urta tarmog'ining ildam rivojlanishiga katta turtki berdi va unda sug'urta bozori rivojlanishining hamda sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berilgan. Ta'kidlash lozimki, mazkur qarorning qabul qilinishi bilan sug'urta bozori rivojlantirish va takomillashtirishda yangi bosqich boshlandi.

Bugungi kunda deyarli barcha sug'urta kompaniyalari respublika mintaqalarida o'z filiallarini tashkil etganlar. Bu yo'nalishdagi ishlar davom etmoqda. Ammo, mulk sug'urtasi bozorini tahlil etish natijalari sug'urta tashkilotlari portfelining salmoqli qismi korporativ sug'urta hisobidan shakllanayotganligi ma'lum bo'ldi. CHakana savdo deb nomlanuvchi sug'urta xizmatlari bozori rivojlanishi sust. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, jismoniy shaxslar uchun mo'ljallangan sug'urta polislari mijozlarning ehtiyojiga mos kelmaydi. Ayniqsa, qishloq joylarda jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya etishga qaratilgan sug'urta mahsulotlarini sotish kanallari etarli emas.

Qishloq joylarda istiqomat qiluvchi jismoniy shaxslarning mulki sug'urta vositasida himoyaga olinmagan.

Bizning fikrimizcha, jismoniy shaxslarning mulkini sug'urtalash tizimini rivojlantirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish lozim.

Shuningdek jismoniy shaxslarga sug'urta polislarini sotishda pochta bo'limlari, mahalla fuqarolar yig'inlari va banklarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur. Sug'urtalovchilarning bu boradagi faoliyati talabga javob bermaydi. Jismoniy shaxslarning mulklarini sug'urtalash bo'yicha shartnomalar tuzish tartibini soddalashtirish lozim, toki u mijozlar uchun tushunarli va oddiy bo'lishi kerak. Qayd etish joizki, hanuzgacha jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash bo'yicha raqobat muhiti to'la-to'kis shakllanmagan. Respublika mintaqalarida, faqat, "O'zagrosug'urta" AJ va "Kafolat" AJ sug'urta kompaniyalari faollik ko'rsatmoqda. Jismoniy shaxslar bilan sug'urta munosabatlarini o'rnatish o'ziga xos xususiyatga ega. Eng avvalo, bu faoliyat ko'p sonli sug'urta agentlari ishlashini, binobarin, ish haqi bilan bog'liq sarf-xarajatlar oshishini talab etadi. Bizning nazarimizda, jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalashda sug'urtalovchilar tomonidan har bir konstruktiv element bo'yicha javobgarlik limitini belgilash zarur. Sug'urta qilish qoidalarida, masalan, quyidagi javobgarlik limitlari ko'rsatilishi mumkin:

- imorat devorlari- sug'urta summasining 25,0 foizi miqdorida;

- imorat potologi – sug'urta summasining 15,0 foizi miqdorida;

- pollar –sug'urta summasining 32,0 foizi miqdorida;

- imorat eshiklari – sug'urta summasining 8,0 foizi miqdorida;

- imorat derazalari oynalari – sug'urta summasining 5,0 foizi miqdorida;

- muhandislik uskunalari – sug'urta summasining 15,0 foizi miqdorida. Shu yo'sinda, agar qo'shnilarning aybi bilan uyni suv bossa uy egasi – sug'urta qildiruvchi sug'urta summasining 15,0 foizini oladi. Ushbu taklifning amaliyotda qo'llanilishi, bizning fikrimizcha, jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalashni yanada rivojlantirishga muhim hissa bo'lib qo'shiladi. Bundan tashqari, avtomobil transporti vositalarini sug'urtalashdan farqli ravishda jismoniy shaxslar mulkini

sug'urtalash sug'urtaning kam zararli turlariga mansub. Ushbu sug'urta turi bo'yicha zararlilik ko'rsatkichi 10,0 foizdan oshmaydi. Avtomobil transportini sug'urtalash va yuridik shaxslar mulkini sug'urtalash bozorini qamrab olgan demping muammosi jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash bozoriga tarif stavkalarining egiluvchanligi sababli unchalik ta'sir ko'rsatmadi. Jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash bo'yicha shartnomalarni tuzish jarayonlarining yanada soddalashuvi va zararlarni tartibga solish ishlarining oddiylashuvi o'z navbatida sug'urta sohasida firibgarlik va tovlamachilikni avj olishiga olib kelishi mumkin. Amaliyotda mazkur sug'urta turi bo'yicha uchrayotgan eng ko'p sug'urta tovlamachilik holatlari quyidagi tarzda namoyon bo'lgan:

- sug'urta hodisasiga duchor bo'lgan ob'ektni oldingi sana bilan sug'urtaga qabul qilish;
- sug'urta hodisasi sodir bo'lganda zarar miqdorini sun'iy oshirish;
- sug'urta qoplamasini olish maqsadida keraksiz, qadrini yo'qotgan va eskirgan mulklarni yo'q qilish. Boz ustiga sug'urta summasi mulkning sug'urta qiymatidan oshirilgan holda ko'rsatiladi.
- sug'urta hodisasi ro'y berishini tashkillashtirish;
- ikki yoqlama sug'urta.

Jismoniy shaxslarning sug'urta polisini sotib olishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida ularga sug'urta mukofotlarini to'lashda to'lov muddatini 2-3 oyga uzaytirish huquqini berish amaliyotini joriy etishni taklif etamiz. SHuningdek, oldindan sug'urta kompaniyasining sug'urta polislariga ega bo'lgan sug'urta qildiruvchilarga yangi sug'urta shartnomasini tuzayotganda hisoblab chiqilgan sug'urta mukofotining 5,0 foizi miqdorida chegirmalar taqdim etish, har yili sug'urta shartnomasining zararsiz amal qilishini ta'minlagani uchun sug'urta qildiruvchiga har yili sug'urta mukofotining 5,0 foizi miqdorida, ammo jami sug'urta mukofoti miqdorining 30,0 foizidan oshmagan miqdorda chegirmalar taqdim etish hamda sug'urta shartnoma muddati tugagandan so'ng uni uzaytirish uchun imtiyozli oy davrini joriy etish maqsadga muvofiq. Jismoniy shaxslarning mulkini sug'urtalash, shubhasiz, sug'urtalovchi portfelida katta hajmga ega emas.

Chunki, sugʻurtalovchilar birinchi navbatda avtosugʻurta va yuridik shaxslar mulkini sugʻurtalash ishlarini rivojlantirishga katta eʼtibor qaratadilar. Avtomobil sugʻurtasi qisqa muddatda katta miqdordagi sugʻurta mukofotlarini toʻplash imkoniyatini beradi. Avtomobil sugʻurtasi boʻyicha tarif stavkalari uy-joy sugʻurtasi boʻyicha tariflardan ancha yuqori. Ammo, ushbu sugʻurta turi boʻyicha zararlilik koʻrsatkichi nisbatan yuqori hisoblanadi. Shu sababli, sugʻurtalovchilar zararlilik koʻrsatkichi ancha past boʻlgan jismoniy shaxslar mulkini sugʻurtalash boʻyicha oʻz faoliyatlarini rivojlantirsalar maqsadga muvofiq. Jismoniy shaxslar mulkini sugʻurtalash yuzasidan rang-barang sugʻurta dasturlarini ishlab chiqish va mijozlarga taqdim etish ijobiy natija beradi. Ipoteka sugʻurtasi ham tez surʼatlar bilan rivojlanmoqda.

Bizning fikrimizcha, uy-joy imoratlarini sugʻurtalash boʻyicha alohida imtiyozli sugʻurta dasturlarini ishlab chiqish lozim. Dastur ixtiyoriy shaklga ega boʻlib, unga haq toʻlash kommunal toʻlovlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Bunday dasturlar jismoniy shaxslar mulkini sugʻurtalash ishini ommalashtirishda va aholining sugʻurta savodxonligini oshirishda yirik ahamiyatga ega boʻladi. Jismoniy shaxslar mulkini sugʻurtalashdagi eng katta muammo bizning fuqarolarimiz tomonidan mulk sugʻurtasining mazmun-mohiyatini etarli darajada bilmasligi bilan izohlanadi. Agar jismoniy shaxs oʻz uy-joyini yoʻqotsa kulfat oldida yakka-yolgʻiz qoladi. Bunday vaziyatlarda sugʻurtaning moliyaviy himoyalash vositasi sifatidagi oʻrnini baholash juda qiyin. Jismoniy shaxslar mulkini sugʻurtalash bilan shugʻullanuvchi sugʻurta tashkilotlariga xizmat koʻrsatish sifatini yanada oshirishni taklif etamiz. Ushbu sugʻurta turining jamiyat uchun foydasini baholash qiyin. Jismoniy shaxslar mulkini sugʻurtalash segmenti istiqbolda gurkirab rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar mavjud.

3-bob bo'yicha xulosa

Jismoniy shaxslarning sug'urta polisini sotib olishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida ularga sug'urta mukofotlarini to'lashda to'lov muddatini 2-3 oyga uzaytirish huquqini berish amaliyotini joriy etishni taklif etamiz. SHuningdek, oldindan sug'urta kompaniyasining sug'urta polislariga ega bo'lgan sug'urta qildiruvchilarga yangi sug'urta shartnomasini tuzayotganda hisoblab chiqilgan sug'urta mukofotining 5,0 foizi miqdorida chegirmalar taqdim etish, har yili sug'urta shartnomasining zararsiz amal qilishini ta'minlagani uchun sug'urta qildiruvchiga har yili sug'urta mukofotining 5,0 foizi miqdorida, ammo jami sug'urta mukofoti miqdorining 30,0 foizidan oshmagan miqdorda chegirmalar taqdim etish hamda sug'urta shartnoma muddati tugagandan so'nguni uzaytirish uchun imtiyozli oy davrini joriy etish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Uy-joy sug'urtasi va uni rivojlantirish istiqbollari mavzu doirasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalar chiqarildi va jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalashda sug'urta kompaniyalar faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.

1. Jismoniy shaxslarning mulkini sug'urtalashda sug'urtalovchilarning anderrayting siyosati muhim o'rin tutadi. Anderrayter risklarni tahlil qilish jarayonida risklarning barcha turlari ichidan shunday risklarni tanlaydiki, bu risklar sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urtaga qabul qilinadi. Keyin u dastlabki seleksiya davrida tanlab olingan risklarni chuqur tahlil etadi. Bundan asosiy maqsad kelgusida bu risklar bilan ishlashni davom ettirish hisoblanadi. Risklarni o'rganish va tahlil etishdan so'ng anderrayter ularning ro'y berish darajasiga muvofiqhamda sug'urta kompaniyasi uchun kutilgan ehtimol zararlar hajmidan kelib chiqib klassifikatsiyalaydi. Tanlab olingan risklarni bunday klasifikatsiyalash keyinchalik sug'urta shartlari, tarif stavkalari va franshiza to'g'risida qaror qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklar umumiy sug'urta tarmog'ining, asosan, 8 klassi Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish va 9klassi mol-mulkni zarardan sug'urta qilish doirasida amalga oshiriladigan sug'urtalash shartlari asosida sug'urta himoyasiga olinadilar. "Sug'urta faoliyati klassifikatori"ning 8-klassining mazmuni va sug'urtalashga qo'yiladigan talablari quyidagilardan iborat.

Yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, emirilish, er osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk (3 va 7- klasslarda ko'rsatilganlar bundan mustasno) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami. Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklar 9-klass doirasida ham sug'urta himoyasiga olinishi mumkin. Bu holda mazkur klassning mazmuni va sug'urtalash shartlari quyidagilardan iborat bo'ladi: 8-klassda

ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko'rsatilgandan boshqa) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami.

3. Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan tahlillar sug'urtalovchilar portfelida mulk sug'urtasi katta salmoqqa ega ekanligini ko'rsatdi. Ammo, chakana savdo deb nomlanuvchi sug'urta xizmatlari bozori rivojlanishi sust. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, jismoniy shaxslar uchun mo'ljallangan sug'urta polislari mijozlarning ehtiyojiga mos kelmaydi. Ayniqsa, qishloq joylarda jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya etishga qaratilgan sug'urta mahsulotlarini sotish kanallari etarli emas. Qishloq joylarda istiqomat qiluvchi jismoniy shaxslarning mulki sug'urta vositasida himoyaga olinmagan.

4. Bizning fikrimizcha, jismoniy shaxslarning mulkini sug'urtalash tizimini rivojlantirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish lozim.

Jismoniy shaxslarga sug'urta polislari sotishda pochta bo'limlari, mahalla fuqarolar yig'inlari va banklarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur. Sug'urtalovchilarning bu boradagi faoliyati talabga javob bermaydi. Jismoniy shaxslarning mulklarini sug'urtalash bo'yicha shartnomalar tuzish tartibini soddalashtirish lozim, toki u mijozlar uchun tushunarli va oddiy bo'lishi kerak. Qayd etish joizki, hanuzgacha jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash bo'yicha raqobat muhiti to'la-to'kis shakllanmagan. Respublika mintaqalarida, faqat, "O'zagrosug'urta" va "Kafolat" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyalari faollik ko'rsatmoqda. Jismoniy shaxslar bilan sug'urta munosabatlarini o'rnatish o'ziga xos xususiyatga ega. Eng avvalo, bu faoliyat ko'p sonli sug'urta agentlari ishlashini, binobarin, ish haqi bilan bog'liq sarf-xarajatlar oshishini talab etadi.

5. Bizning nazarimizda, jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalashda sug'urtalovchilar tomonidan har bir konstruktiv element bo'yicha javobgarlik limitini belgilash zarur. Sug'urta qilish qoidalarida, masalan, quyidagi javobgarlik limitlari ko'rsatilishi mumkin:

- imorat devorlari- sug'urta summasining 25,0 foizi miqdorida;
- imorat potologi – sug'urta summasining 15,0 foizi miqdorida;
- pollar –sug'urta summasining 32,0 foizi miqdorida;
- imorat eshiklari – sug'urta summasining 8,0 foizi miqdorida;
- imorat derazalari oynalari – sug'urta summasining 5,0 foizi miqdorida;
- muhandislik uskunalari – sug'urta summasining 15,0 foizi miqdorida. SHu

yo'sinda, agar qo'shnilarning aybi bilan uyni suv bossa uy egasi – sug'urta qildiruvchi sug'urta summasining 15,0 foizini oladi. Ushbu taklifning amaliyotda qo'llanilishi, bizning fikrimizcha, jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalashni yanada rivojlantirishga muhim hissa bo'lib qo'shiladi.

6. Avtomobil transporti vositalarini sug'urtalashdan farqli ravishda jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash sug'urtaning kam zararli turlariga mansub. Ushbu sug'urta turi bo'yicha zararlilik ko'rsatkichi 10,0 foizdan oshmaydi. Avtomobil transportini sug'urtalash va yuridik shaxslar mulkini sug'urtalash bozorini qamrab olgan demping muammosi jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash bozoriga tarif stavkalarining egiluvchanligi sababli unchalik ta'sir ko'rsatmadi.

7. Jismoniy shaxslarning sug'urta polisini sotib olishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida ularga sug'urta mukofotlarini to'lashda to'lov muddatini 2-3 oyga uzaytirish huquqini berish amaliyotini joriy etishni taklif etamiz. SHuningdek, oldindan sug'urta kompaniyasining sug'urta polislariga ega bo'lgan sug'urta qildiruvchilarga yangi sug'urta shartnomasini tuzayotganda hisoblab chiqilgan sug'urta mukofotining 5,0 foizi miqdorida chegirmalar taqdim etish, har yili sug'urta shartnomasining zararsiz amal qilishini ta'minlagani uchun sug'urta qildiruvchiga har yili sug'urta mukofotining 5,0 foizi miqdorida, ammo jami sug'urta mukofoti miqdorining 30,0 foizidan oshmagan miqdorda chegirmalar taqdim etish hamda sug'urta shartnoma muddati tugagandan so'ng uni uzaytirish uchun imtiyozli oy davrini joriy etish maqsadga muvofiq.

8. Jismoniy shaxslarning mulkini sug'urtalash, shubhasiz, sug'urtalovchi portfelida katta hajmga ega emas. CHunki, sug'urtalovchilar birinchi navbatda avtosug'urta va yuridik shaxslar mulkini sug'urtalash ishlarini rivojlantirishga

katta e'tibor qaratadilar. Avtomobil sug'urtasi qisqa muddatda katta miqdordagi sug'urta mukofotlarini to'plash imkoniyatini beradi. Avtomobil sug'urtasi bo'yicha tarif stavkalari uy-joy sug'urtasi bo'yicha tariflardan ancha yuqori. Ammo, ushbu sug'urta turi bo'yicha zararlilik ko'rsatkichi nisbatan yuqori hisoblanadi. SHu sababli, sug'urtalovchilar zararlilik ko'rsatkichi ancha past bo'lgan jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash bo'yicha o'z faoliyatlarini rivojlantirsalar maqsadga muvofiq. Jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash yuzasidan rang-barang sug'urta dasturlarini ishlab chiqish va mijozlarga taqdim etish ijobiy natija beradi. Ipoteka sug'urtasi ham tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

9. Bizning fikrimizcha, uy-joy imoratlarini sug'urtalash bo'yicha alohida imtiyozli sug'urta dasturlarini ishlab chiqish lozim. Dastur ixtiyoriy shaklga ega bo'lib, unga haq to'lash kommunal to'lovlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Bunday dasturlar jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash ishini ommalashtirishda va aholining sug'urta savodxonligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

10. Jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalashdagi eng katta muammo bizning fuqarolarimiz tomonidan mulk sug'urtasining mazmun-mohiyatini etarli darajada bilmasligi bilan izohlanadi. Agar jismoniy shaxs o'z uy-joyini yo'qotsa kulfat oldida yakka-yolg'iz qoladi. Bunday vaziyatlarda sug'urtaning moliyaviy himoyalash vositasi sifatidagi o'rnini baholash juda qiyin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Meyoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1996 yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2008 yil 21 aprel.
3. "Ish beruvchiining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2009 yil 16 aprel.
4. O'zbekiston Respublikasining "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni. 2015 yil 26 may
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Sug'urta faoliyati to'g'risida». 2002 yil 28 may (O'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
6. 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. 2017 yil 7 fevral O'zbekiston Prezidentining farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-618-son Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-872-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011 — 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-son Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 31 maydagi PQ-1544-son Qarori

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 141-sonli qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2009 yil 24 iyundagi 177-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma’ruzalari

13. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 – fevraldagi PF – 4947 – sonli Farmoni.

14. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “ O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488b.

15. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil , qa’tiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent : “O‘zbekiston” NMIU, 2017 . – 104b.

16. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovan , demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : “ O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56b.

17. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent : “O‘zbekiston” NMIU,2017 – 48b .

3. Darslik va o’quv adabiyotlari

18. Rene Doff “Risk Management for Insurers, Third Edition”, Risk Books, 2015.

19. Jack Kinder Jr. Garry Kinder “Secrets of Successful Insurance Sales”, Napoleon Hill Foundation, UK, 2012.

20. David Bland “Insurance: Principles and Practice”, The Chartered Insurance Institute, UK, 1993.
21. Robert H., II Jerry, Douglas S. Richmond “Understanding Insurance Law”, LexisNexis; 5 edition, UK, 2012.
22. Harriett E. Jones “Principles of Insurance Life, Health, and Annuities”, Loma (Life Office Management Association), USA, 2005.
23. Glenn E. Stevick Jr. “Essentials of Business Insurance”, The American College, USA, 2006.
24. David F. Babbel “Risk Management by Insurers: An Analysis of Process. Financial Institutions Center May 1996
25. Jari M. Talvinen. Information systems in marketing: Identifying opportunities for new applications // European Journal of Marketing, Vol. 29 No1, 1995.–R. 11
26. Shennaev X.M. Sug’urta agentlari uchun qo’llanma. T. infoCOM.UZ MChJ.-2010 y.
27. Yo’ldoshev M, Tursunov Y. O’zbekiston Respublikasi sug’urta huquqi. Darslik - Toshkent, “Moliya”.-2012.
28. Shennaev X.M., Kenjaev I.G’. Chet mamlakatlar sug’urtasi, O’quv qo’llanma, - Toshkent «YAngi nashr»,-2012
29. Shennaev X.M. O’zbekiston sug’urta bozori, O’quv qo’llanma, - Toshkent, “Iqtisod-Moliya”,-2013.
30. Shennaev X.M., Ochilov I.K., Shirinov S.E., Kenjaev I.G’. Sug’urta ishi, O’quv qo’llanma,-Toshkent «Iqtisod-Moliya»,-2014.
31. Shennaev X.M., Xaliqulova G.T., Abduraxmonov I.X. Tashqi iqtisodiy faoliyat sug’urtasi,Darslik,-Toshkent-2014.
32. Годин А.М., Фрумина С.В. Страхование: учебник. – М.: изд-во «Дашков и К», 2009. – 480 стр.
33. Самарова э. Страховая математика: практический курс. Учебное пособие. – М.: “ИНФРА – М ”, 2009 г. – 80 стр.

34. Страхование. Учебник / под ред. Т.А.Федоровой. – М.: “Магистр”, 2009 г. – 1006 стр.
35. Рыбин В. Основы страхования. Учебное пособие. – М.: “КНОРУС”, 2010 г. – 240 стр.
36. Никулина Н. Страховой маркетинг. Учебное пособие. – М.: “ЮНИТИ – ДАНА”, 2009 г. – 503 стр.
37. Сербиновский Б. Страховое дело. Учебное пособие. – Ростов н/Д: “Феникс”, 2010 г. – 476 стр.
38. Страхование: экономика, организация, управление. Учебник. – М.: “Экономика”, 2010 г. – 751 стр.
39. Гаврилова С. Страхование: Учебное пособие. – М.: “Ексмо”, 2010 г. – 304 стр.
40. Галаганов В. Основы страхования и страхового дела: учебное пособие. – М.: “КНОРУС”, 2010 г. – 224 стр.
41. Денисова И. Страхование. Учебник. – М.: ИКС “МарТ”, 2009 г. – 240 стр.
42. Игошин Н. Страховое право. Учебное пособие. – М.: “ЮНИТИ – ДАНА”, 2010 г. – 167 стр.
43. Короткова Ю.Е. Краткий курс по страхованию. Учебное пособие. – М.: Изд. “Окей – книга”, 2010 г. – 176 стр.
44. Кузнецова И. Страхование жизни имущества граждан. Практическое пособие. – М.: “Дашков и К”, 2010 г. – 228 стр.

4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)

18. Xalqaro moliya korporatsiyasining 2003 yilning yakuni bo'yicha tayyorlangan «Delovaya sreda v Uzbekistane glazami predstaviteley malogo biznesa» broshyurasidan olingan. Toshkent, 2003 yil.
19. Xalqaro moliya korporatsiyasining 2003 yilning yakuni bo'yicha tayyorlangan «Delovaya sreda v Uzbekistane glazami predstaviteley malogo biznesa» broshyurasidan olingan Toshkent, 2003 yil.
20. “Yosh olimlar va talabalar tadqiqotlarida soliq tizimini isloh qilishning ilmiy asoslari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi. Soliq

akademiyasi, 2012 yil 27 aprel.

21. “Iqtisodiyot nazariyasi muammolari: talqini va yechimlari” mavzusidagi Respublika Oliy o’quv yurtlararo ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent moliya instituti, 2013 yil 17 may.

22. I.Kenjaevning “Sug’urta kompaniyalarining investitsion faoliyati masalalari” nomli ilmiy maqola. Moliya ilmiy jurnali 2013 yil №2-son ,62-bet.

23. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag’batlantiruvchanlik rolini yanada oshirish yo’llari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to’plami. Toshkent-2014.

24. O’zbekiston milliy sug’urta bozorining rivojlanish tendensiyalari, muammolari va echimlari. Oliy o’quv yurtlararo ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari to’plami. Toshkent-2015 yil.

25. O’zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg’or xorij tajribasidan foydalanish. Xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari to’plami. Toshkent-2015 yil.

26. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari.

27. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish bo’yicha to’lovlarni kafolatlash jamg’armasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

5. Internet saytlari

28. <http://www.mf.uz> (O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining rasmiy sayti).

29. <http://www.press-service.uz> (O’zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati).

30. <http://www.znay.ru> – (Elektron kutubxona).

31. <http://www.raexpert.ru> (Ekspert Reyting agentligi).

32. <http://www.lex.uz> (Milliy qonunchilik rasmiy bazasi).